





ONAXON JABBOROVA, ZUHRA UMAROVA

BOSHLANG'ICH TA'LIM DIAGNOSTIKASI

ISBN 978-9943-9395-4-7



9 789943 939547



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Onaxon Jabborova, Zuhra Umarova

**BOSHLANG'ICH TA'LIM
DIAGNOSTIKASI**

MONOGRAFIYA

**«ZEBO PRINT»
TOSHKENT – 2023**

UO‘K: 338.2(075.8)

KBK: 65.9(50‘)

Mazkur monografiya “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ijrosi doirasida tayyorlangan bo‘lib, unda boshlang‘ich ta’lim nazariyasi, didaktikasi, metodikasi va boshqaruvini diagnostika qilish masalalari yoritilgan. Asosiy e’tibor boshlang‘ich ta’lim jarayonini monitoring qilish bilan uni takomillashtirish omillariga qaratilgan.

Monografiya talabalar, o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar va amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Mardonov Shukurullo Qo‘ldoshevich, pedagogika fanlari doktori,
professor

Taqrizchilar:

Abdujalilova Shoira Abdumajidovna, pedagogika fanlari nomzodi,
CHDPU “Maxsus pedagogika” kafedrasi dotsenti
Po‘latova Dildora Turg‘unovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2023 yil 14 martdagি 3- sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9395-4-7

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi diagnostikasi.....	6
II BOB. Boshlang‘ich ta’lim didaktikasi diagnostikasi	16
III. BOB. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi diagnostikasi.....	25
IV BOB. Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi diagnostikasi	36
V BOB. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini tashkil etishning me’yoriy asoslari	44
VI BOB. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining zamonaviy texnologiyalari.....	53
VII BOB. Oliy boshlang‘ich pedagogik ta’lim jarayoni diagnostikasi	61
VIII BOB. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi diagnostikasi.....	68
IX BOB. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi bo‘yicha xorijiy tajribalar.....	75
X BOB. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida klaster tizimi	81
XI BOB. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti	88
XII BOB. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligi diagnostikasi.....	93
XULOSA.....	102
Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati	104

KIRISH

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’lim bosqichi ta’lim tizimining eng muhim tarkiblaridan biri hisoblanadi. Chunki bu bosqich o‘quvchilarning maktabgacha va mакtab ta’limi bilan bog‘lanishida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli eng zaruriy va dolzarb masalalardan biri *boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini* amalga oshirishdir. Bunda asosiy hujjat “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va uning ijrosi bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan ta’lim dasturlari tashkil etadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi muammosini tadtqiq etish va bu borada nazariy hamda metodologik tavsiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

“Diagnostika” – lotincha so‘z bo‘lib, o‘rganish, baholash va belgilash ma’nolarini anglatadi.¹ Diagnostika – ma’lum ilmiy asoslangan metodlar asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarining sifati va samaradorligini, pedagog xodimlarning kasbiy tayyorgarliklari, bilimi, ko‘nikmasi, malaka va mahoratlarini, o‘quvchilarning olgan bilimlarini o‘zlashtirishlari va tarbiyanlanganlik darajalarini atroflicha o‘rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiya berish bilan shug‘ullanuvchi pedagogik jarayondir. Shu sababli diagnostikaning qamrovi keng bo‘lib, bunda asosiy e’tibor mazkur jarayonning ilmiy asoslangan metodlariga tayanishiga qaratiladi. Ilmiy metodlar bu o‘rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, baholash va tavsiyalar majmuidir. Bunda diagnostika jarayonini amalga oshiruvchilar ana shu ilmiy metodlarga qat’iy amal qilishi taqozo etiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi o‘ziga xos yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bu yo‘nalishlarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang‘ich ta’lim nazariyasi diagnostikasi;
- 2) boshlang‘ich ta’lim didaktikasi diagnostikasi;

¹ Джураев Р. ва бошк. Педагогик атамалар лугати. – Т.: “Фан”. 2008. Ўзбек педагогик энциклопедияси. Муаллифлар жамоаси. 2-ТОМ. – Т., “Фан ва технология”. 2017 ва х.к.

- 3) boshlang‘ich ta’lim metodikasi diagnostikasi;
- 4) boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi diagnostikasi;
- 5) boshlang‘ich ta’lim samaradorligi diagnostikasi.

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha yangi avlod ilmiy-tadqiqotlarini yaratish zaruriyat bo‘lib turibdi. Shu sababli bu o‘rinda biz mazkur masalaning eng muhim jihatlarini ilmiy, nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilishga harakat qildik.

Monografiyani yaratishda boshlang‘ich ta’limga qo‘yilayotgan hozirgi zamon talablari, uning muammolari, hal qilinishi lozim bo‘lgan yondashuvlar va boshlang‘ich ta’lim samaradorligi masalalari tahliliga diagnostik nuqtai nazardan yondashildi. Tadqiqot bu boradagi ilk ishlanma ekanligini eslatib o‘tish joiz.

Monografiyaga doir fikr-mulohazalarni kutib qolamiz.

I BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM NAZARIYASI

DIAGNOSTIKASI

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’lim jarayoni, uning nazariyasi, didaktikasi va metodologik asoslari muntazam ravishda yangilanib bormoqda. Bu hol boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi muammosini hal etib olishni taqozo etadi. Shu ma’noda bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich ta’lim nazariyasi diagnostikasining eng muhim jihatlari tahliliga tortamiz.

1. *Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi mazmuni.* Boshlang‘ich ta’lim manbalari, uning muammolari bo‘yicha yaratilgan ilmiy tadqiqotlar va ta’limning mazkur bosqichi amaliy tajribalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi masalasi eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi mazmunida quyidagi omillar muhim o‘rin tutadi:

- a) boshlang‘ich ta’limni majmui (kompleks) o‘rganish;
- b) boshlang‘ich ta’limning yutuqlarini baholash;
- v) boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning yo‘nalishlarini belgilash.

Aynan o‘rganish, baholash va belgilash natijasida diagnostik jarayon amalga oshiriladi. Shu jihatdan diagnostika atamasini *tashxislash*, ya’ni yutuqlarini baholab va muammolarni hal etish choralarini belgilash ma’nosida tushunish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Diagnostika va tashhislash atamalarini muqobil qo‘llash bugungi kunda pedagogik atamashunosligimizda mavjud. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’limni majmuiy o‘rganish uni tashkil etish, boshqarish, takomillashtirish va istiqbolini belgilash maqsadida amalga oshiriladi; aynan mana shu ma’lumotlar asosida boshlang‘ich ta’lim yutuqlari baholanadi. Baholash jarayoni “qoniqarli”, “yaxshi” va “ijobiy” mezonlar asosida amalga oshiriladi, bu mezonlarga binoan boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish yo‘nalishlari belgilanadi.² Mazkur

² Гессен А. Педагогика: Теория, практика, подходы. – М.: «Мысль». 1997

yondashuvlarni eslab qolish va oliv pedagogik ta’lim jarayonida ularni o‘zlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun kasbiy kompetensiya tarkibiga kiradi. Unutmaslik lozimki, diagnostika – bu o‘rganish, baholash va belgilash majmuidir. Shu sababli keyingi paytlarda ta’lim tizimining barcha turlari va bosqichlari qatorida boshlang‘ich ta’limni diagnostika qilish ham dolzarb masalaga aylandi. Chunki aynan diagnostika jarayoni boshlang‘ich ta’limning pedagogik jarayon, ta’lim va tarbiyatagi ilmiy, nazariy hamda metodik qiyofasini belgilaydi.

Pedagog olimlarning fikricha, diagnostika eng avvalo ta’lim-tarbiya jarayoni mazmunini ma’lum bir ilmiy asoslangan metodlarga tayangan holda baholashdir.³ Bunday ilmiy metodlarning turlari ko‘p bo‘lib, ularda quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- 1) ilmiy tahlil metodi;
- 2) ilmiy xulosa metodi;
- 3) ilmiy tavsiyalar metodi.

Boshlang‘ich ta’lim mazmunini diagnostika qilishda ilmiy tahlil metodi muhim ahamiyatga ega. Bu metodning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- har bir ta’lim va tarbiya jarayonining hodisasisiga ilmiy fikrlash asosida yondashish;
- aniqlangan ma’lumotlarga ilmiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashish;
- diagnostika jarayoniga ilmiy yondashuvlar asosida munosabatda bo‘lish.

Bunda “ilmiylik” tushunchasini asosli fikr, asosli ma’lumot va asosli yondashuv sifatida qabul qilish nazariy hamda metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Shu sababli pedagogik adabiyotlar va tadqiqotlarda ilmiylik metodi ilk rejada turadi. Buning natijasida o‘rganilayotgan ta’lim va tarbiyaviy jarayon bo‘yicha to‘g‘ri yondashuvlarga asoslaniladi. Shu sababli diagnostika jarayoniga ilmiy tafakkurga ega

³ Педагогика фанидан изоҳли лугат. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, 2009, 125-бет

va amaliy tajribalarni o‘zida ifodalagan mutaxassislarning ishtirokiga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim mazmunini diagnostika qilishning navbatdagi muhim metodlaridan biri ilmiy xulosadir. Unda quyidagilarga asoslaniladi:

- aniqlangan ma’lumotlarni to‘g‘ri qabul qilish;
- ma’lumotlarni ilmiy asoslangan yondashuv asosida tahlil qilish;
- amalga oshirilgan tahlil natijasida boshlang‘ich ta’lim va tarbiya jarayonini rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

E’tibor berilsa, diagnostik jarayonning ilmiy tahlil metodi boshlang‘ich ta’lim mazmunini xolis va oqilona baholash uchun muhim omildir. Shu sababli bu borada mamlakatimiz va xorijiy pedagog olimlarining ilmiy tahlillar bo‘yicha tavsiyalariga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ta’lim va tarbiya bo‘yicha ma’lumotlarni aniqlash va to‘plash murakkab ish emas, biroq ularni ilmiy tahlil qilish natijasida xulosalarga kelish muayyan tajribalarga tayanishni taqozo etadi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, bu borada o‘quv va ilmiy pedagogik muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Asosiy maqsad diagnostika jarayonida ilmiy xulosalash metodidan to‘g‘ri foydalanişdir.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi mazmunida navbatdagi muhim metodlardan biri ilmiy tavsiyalardir. Unga ko‘ra, quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- boshlang‘ich ta’limni va tarbiyani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan tavsiyalarning bugungi talablarga mosligini ta’minlash;
- tavsiyalarni ishlab chiqishda imkon qadar hududlarning maktab sharoitlari va infratuzilma imkoniyatlarini hisobga olish.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi mazmunida ilmiy tavsiyalar metodi muhim ahamiyatga ega.

Zero, boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi mazmunida ilmiy tahlil, ilmiy xulosa va ilmiy tavsiyalar metodlari eng muhim masalalar

hisoblanadi. Mazkur metodlarning mazmuni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. *Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining nazariy xususiyatlari.*

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini amalga oshirishda uning nazariy o‘ziga xosligiga e’tibor berish lozim. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining nazariy xususiyatlarida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- a) boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarish jarayoni;
- b) boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalari;
- v) boshlang‘ich ta’limning o‘quv-metodik ta’minoti.

Boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarish jarayoni maxsus yondashuvlar, savolnomalar va muayyan me’yoriy hujjatlar ijrosi bo‘yicha o‘rganiladi. Boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda shaxs tarbiyasidagi ahamiyati hisobga olinadi, uni boshqarishda esa boshlang‘ich ta’limning samaradorlik yo‘llariga e’tibor qaratiladi. Bugungi kunga qadar boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarish jarayoni “Pedagogik menejment” fani tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Keyingi yillarda individual yondashuvlar va tamoyillarga asoslangan “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” fanining tarkib topa boshlaganini eslatib o‘tish joiz. Mazkur yuzaga kelayotgan fanning eng muhim vazifalaridan biri boshlang‘ich ta’limni tashkil etish va boshqarish asoslari, omillari hamda samaralarini o‘rganish natijasida baholashdan iborat bo‘lishi kutilmoqda. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti” maxsus kursini tashkil etish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi nazariyasida mazkur ta’lim bosqichining asosiy vazifalarini o‘rganish hamda baholash ham muhim o‘rin tutadi. Chunki jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalari yangilanib bormoqda. Misol uchun, avval boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmasini shakllantirish va ularni bilim olamiga olib kirish asosiy vazifasini bajargan bo‘lsa, bugungi kunda bunday vazifaning tarkiblaridan biri sifatida o‘quvchilarni ta’limning keyingi

bosqichlariga talab darajasida tayyorlash ham yuzaga keldi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalarini o'rganish va baholashda real sharoitlar hamda ehtiyojlardan kelib chiqiladi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limning vazifalari samaradorligi diagnostika qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining nazariy masalalarida mazkur ta'lim bosqichining o'quv-metodik ta'minotini o'rganish va baholash amaliy jihatdan zaruriyat hisoblanadi. Chunki aynan o'quv-metodik ta'minot boshlang'ich ta'lim nazariyasini amaliyot bilan bog'lovchi omildir. E'tibor berilsa, bugungi kunda boshlang'ich ta'lim o'quv rejalar, dasturlari va o'quv adabiyotlari muntazam yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Biroq bu o'rinda yangilanishning asosli ekanligi diagnostika qilinadi. Chunki o'quv rejalar, dasturlari va adabiyotlarini muntazam yangilash yoki ularni o'zgartirish beqarorlikka olib keladi. Shu sababli mazkur jarayonda o'rganish va baholashning ahamiyati boshlang'ich ta'limning o'quv-metodik ta'minotidagi yutuqlar hamda muammolarni diagnostika qilish bilan amalga oshiriladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lim diagnostikasining nazariy xususiyatlari ilmiylik, muqobililik va asoslilik tamoyillariga tayanadi. Bu jarayonda aynan ana shu tamoyillar asosida diagnostikani amalga oshirish metodologik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining nazariy xususiyatlariga ta'lim va tarbiya jarayonlarining sifati hamda samaradorligini baholash asosiy vazifasi sifatida belgilangan. Buning uchun eng muhim va maqbul texnologiyalarga asoslanish taqozo etiladi. Bunday texnologiyalarning asosiyları quyidagilardan iborat:

- anketa texnologiyasi;
- raqamli texnologiya;
- talqin texnologiyasi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi nazariyasida anketa texnologiyasi keng ommalashgan. Unga ko'ra, maxsus tuzilgan savolnomadan

iborat Anketa vositasida ta’lim va tarbiya jarayonining sifati hamda samaradorligi o’rganiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida bunday anketa texnologiyasidan foydalanish uchun tuziladigan so‘rovnoma sifatli ta’lim va uning samaradorligiga oid masalalarning aks etishi birlamchi hisoblanadi. Bunda sifatli ta’lim asoslari, mezonlari va uni baholash vositalari to‘g‘risida savolnomalar aks etishi kerak. Shuni ta’kidlash lozimki, tuzilgan savolnomalar qisqa va ko‘p ma’lumotni olishga yo‘naltirilgan tarzda bo‘lishi lozim. Bugungi kunda bunday so‘rovnomalarning savollari miqdori ko‘payib ketayotganligi kuzatiladi. Diagnostikada savollarning qisqaligi va aniqligi tamoyiliga asoslangan holda ular tuziladi hamda ma’lumotlari ishonchli bo‘lishi uchun imkon qadar ochiq javoblar aks ettiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi nazariyasining navbatdagi texnologiyasi bu – raqamli texnologiyadir. Mazkur texnologiyaga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligi masofadan turib kompyuter o‘quv-texnik vositasi asosida maxsus dasturga binoan o’rganiladi. Bunday dasturda boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalari va ularning ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan natijalarni aniqlash belgilanadi. Bunday dasturlar boshlang‘ich ta’lim muammolari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirgan va raqamli texnologiyalar bo‘yicha amaliy mutaxassislar tomonidan tuziladi. Raqamli texnologiyaning qulayligi shundaki, uning ma’lumotlarida insonning salbiy ta’siri omili bo‘lmaydi. Chunki masofadan turib o‘rganilgan diagnostika jarayoni raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda xolis baholanadi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi nazariyasida navbatdagи texnologiya – bu talqin texnologiyasidir. Bu texnologiyaga ko‘ra, o‘rganish vositasida olingan ma’lumotlar me’yoriy hujjatlarga asosan talqin etiladi. Bunda talqin texnologiyasi tahlildan farqli o‘laroq, asosiy e’tiborni boshlang‘ich ta’lim muammolarini o‘rganishga qaratadi. Shu sababli bu texnologiya xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimida, ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim va tarbiya jarayonini rivojlantirishga

yo‘naltirilgan islohotlarning o‘zgaruvchan bo‘lishi talqin texnologiyasidan foydalanishni taqozo etadi. Chunki bunday texnologiyada faqat amaldagi hujjatlar asosida ta’lim sifati va samaradorligi o‘rganilib baholanadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining nazariy xususiyatlari o‘ziga xos asoslarga ega. Shu sababli Diagnostika pedagogikaning bo‘limlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

3. *Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi manbalari*. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining nazariy xususiyatlarda mazkur ta’lim bosqichining manbalarini o‘rganish va baholash eng muhim yondashuvlardan biridir. Bugungi kunga qadar mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limida milliy pedagogik manbalar va tajribalar asosiy manba sifatida qabul qilib kelingan. Ayni paytda, jamiyatimizning keyingi besh yil ichidagi rivojlanish jarayonida boshlang‘ich ta’lim manbalariga ham yangiliklarning kiritilishi yuzaga keldi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim manbalarini o‘rganish va baholash asosida diagnostika qilishda quyidagi eng muhim manbalarga e’tibor qaratishini ta’kidlab o‘tish lozim:

- a) boshlang‘ich ta’limning qonunchilik asoslari;
- b) boshlang‘ich ta’limning pedagogik manbalari;
- v) boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiytadqiqotlar.

Boshlang‘ich ta’limning qonunchilik asoslari mamlakatimizning va xalqaro ta’lim tashkilotlarining hujjatlari qiyosiy ravishda o‘rganish bilan u diagnostika qilinadi. Bu borada mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limi bo‘yicha qonunchilik hujjatlarining individualligi va ularning xalqaro ta’lim hujjatlariga mosligi baholanadi. Chunki butun dunyoda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda uning YUNESKO tashkiloti tomonidan mamlakatlarning milliy qonunchilik hujjatlari xalqaro ta’lim hujjatlariga moslashtirilishi ishlari amalga oshirilmoqda. Bu hol har bir mamlakatning boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha qonunchilik hujjatlarini takomillashtirilishiga xizmat qiladi. Demak, mamlakatning

boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha qonunchilik hujjatlarini qiyosiy o‘rganish tamoyili asosida diagnostika qilinadi.

Boshlang‘ich ta’limning pedagogik manbalari mamlakatimizda milliy va xalqaro xususiyatlarga ega asarlar, tajribalar hamda yondashuvlar majmuidan iborat. Shu sababli mazkur masalani o‘rganish va baholashda boshlang‘ich ta’limning milliy manbalarga tayangan holda xalqaro ta’lim hujjatlariga asoslanishi nuqtai nazaridan yondashiladi. Chunki mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limning milliy manbalari bo‘yicha juda keng va ko‘p asarlarga ega bo‘lib, ular individual xarakterda ekanligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli bu milliy manbalardagi boshlang‘ich ta’lim asoslari xalqaro ta’lim hujjatlari qoidalariga muvofiq tarzda o‘rganilib, diagnostika qilinadi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim manbalaridan eng muhim qismini ilmiy tadqiqotlar majmui tashkil etadi. Bunday ilmiy tadqiqotlar ko‘p hollarda ikki yo‘nalishda amalga oshirilgan bo‘ladi: birinchisi, bevosita boshlang‘ich ta’lim muammolari tadqiq etilgan ilmiy-tadqiqotlar; ikkinchisi, pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda kezi bilan boshlang‘ich ta’lim muammolari tahlil qilib o‘tilgan ilmiy-tadqiqotlar. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim manbalarini o‘rganish va baholashda bevosita mazkur ta’lim muammolari tadqiq etilgan ilmiy-tadqiqotlarning ko‘lami, nazariy xulosalari hamda metodologik tavsiyalariga ustuvor darajada tayaniladi. Bunday tamoyil asosida boshlang‘ich ta’limning ilmiy tadqiqotchilik manbalarini o‘rganish va baholash amalga oshiriladi. Pedagogik ilmiy-tadqiqotlar mazmunida boshlang‘ich ta’limga oid bilvosita amalga oshirilgan tahlillar mazkur ta’lim bosqichining metodologik muammolariga qaratilgan bo‘ladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining nazariy xususiyatlari uning mazmuni, nazariy omillari va manbalaridan iborat. Mazkur yo‘nalishlar asosida boshlang‘ich ta’limni o‘rganish, baholash hamda diagnostika qilish ishlari amalga oshiriladi. Bu o‘rinda e’tiboringiz boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining eng asosiy nazariy xususiyatlari tahliliga qaratildi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mutaxassislik (majburiy) va tanlov o‘quv fanlari vositasida boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining nazariy xususiyatlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtiradi. Misol uchun, bu boradagi tahlillar “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integrasiyasi” o‘quv fani materiallarida muayyan darajada amalga oshirilgan. Ayni paytda, kelgusida “Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi” maxsus kursini tashkil etish va uning vositasida boshlang‘ich ta’lim samaradorligini baholash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining qo‘yilayotgan muammo bo‘yicha kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi asosiy masala hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi manbalarini belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:


- birlamchi manbalarni belgilab olish;
- manbalardagi bog‘liqlikni aniqlash;
- manbalar asosida diagnostika jarayonini to‘g‘ri amalga oshirish.

Birlamchi manbalarni belgilab olish tamoyili pedagogik adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning eng muhimlariga asoslanishga tayanadi. Misol uchun, Abu Ali Ibn Sinoning “Shifo” asarida o‘quvchilarни aqliy, jismoniy va ruhiy jihatdan tarbiyalash belgilangan, bu yondashuv hozirgi zamon Pedagogikasida qabul qilingan. Shu ma’noda mazkur manba asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy, jismoniy va ruhiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish belgilanadi. Tarbiyaning qolgan turlari – estetik, ekologiya, iqtisodiy, mehnat va fuqarolik tarbiyalari keyingi davrlarda boshlang‘ich ta’lim funksiyasiga kiritilgan. Shu sababli bunday tarbiya turlari bo‘yicha o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash ikkilamchi manba sifatida diagnostika qilinadi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi manbalarining o‘zaro bog‘liqlik tamoyili bir-birini to‘ldiruvchi vositaga asoslangan. Bunda pedagogik manbalar, adabiyotlar va ta’limga oid hujjatlarda belgilangan boshlang‘ich ta’lim vazifalari o‘zaro uyg‘unlashtiriladi. Buning

natijasida boshlang‘ich ta’lim jarayonini diagnostika qilish va tarbiya amaliyotini baholash imkoniyatlari keng amalga oshiriladi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi nazariyasida mazkur jarayonni tashkil etish, uni amalga oshirish uchun tayaniladigan asoslar va baholash mezonlari muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mazkur masalalar bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:



1-rasm. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi nazariyasi asoslari

II BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM DIDAKTIKASI DIAGNOSTIKASI

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’lim jarayonini zamonaviy asoslarda rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajasini yuksaltirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu masala boshlang‘ich ta’lim didaktikasi diagnostikasi *asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi*.

“Didaktika” – lotincha so‘z bo‘lib, o‘qitish, ta’lim berish va tushuntirish ma’nolarini anglatadi.⁴ Ko‘p hollarda didaktika atamasi ta’lim nazariyasi sifatida qabul qilinadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim didaktikasi diagnostikasi deganda mazkur ta’lim bosqichida o‘qitishning asoslari va uning samaradorligini o‘rganish hamda baholash tushuniladi. Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’lim didaktikasida maqsadli diagnostikani amalga oshirish imkonini beradi. Boshlang‘ich ta’lim didaktikasi diagnostikasida quyidagilarni o‘rganish va baholash muhim ahamiyatga ega:

1. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining o‘qitish mohiyati.
Boshlang‘ich ta’lim jarayonida diagnostik yondashuv asosan o‘qitishga tayanadi. Keyingi paytlarda milliy va jahon pedagogikasida o‘qitishning ma’no va mazmuni o‘zgarayotganligini eslatib o‘tish joiz.⁵ Unga ko‘ra, o‘quv materiallarini ixchamlashtirish va imkonqadar yangi ma’lumotlarni taqdim etish jarayoni kechmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida o‘qitishning quyidagi xususiyatlarga e’tibor qaratiladi:

- 1) o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tezkor ravishda shakllantirish;
- 2) maktabgacha va umumiyligiga o‘rtalim bo‘g‘inini o‘zaro aloqadorlikda bog‘lash;

⁴ Джураев Р. ва бошк. Педагогик атамалар лугати. – Т.: “Фан”, 2008.

⁵ Карап. Жабборова О.М. Башлангич таълим методикасининг янги назарий масалалари. – Тошкент, 2022

3) boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining professional tayyorgarligini muntazam kengaytirib borish.

Aynan mana shunday mezonlarga asosan boshlang‘ich ta’limda o‘qitish amalga oshiriladi. Jumladan, o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini tezkor ravishda shakkantirish o‘quv fanlarining hamda to‘garaklarning sifati bilan belgilanadi. Shu sababli bu borada diagnostika aynan o‘qitish sifatiga baho berishidan amalga oshiriladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim maktabgacha ta’limni davom ettirishi va keyingi ta’lim bosqichiga o‘quvchilarni tayyorlashi kerak. Mazkur vazifa juda murakkab bo‘lib, u psixologik, pedagogik va fiziologik jihatdan chuqurlashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda diagnostika qilishda o‘quvchilarining jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanganlik darajasiga ahamiyat beriladi. Ayni paytda, boshlang‘ich ta’limning mohiyati o‘qituvchilarining professionallik darajasi bilan belgilanadi. Bunda asosiy e’tibor har bir o‘qituvchining individual metodga ega bo‘lishiga qaratiladi. Shu sababli diagnostika jarayonida o‘qituvchilarining malaka darajasi alohida baholanadi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, o‘qituvchilarining malaka darajasi har besh yilda diagnostika qilinadi, baholanadi va ularning toifa darajasi o‘zgartiriladi. Bu maktab ta’limiga tegishli. O‘rta maxsus va oliv ta’limda o‘qituvchilar faoliyati ularning ilmiy va o‘quv samaradorligiga binoan diagnostika qilinadi. Lekin hozirgi tajribaga ko‘ra mazkur toifa o‘qituvchilarining faoliyati baholanmaydi. Chunki diagnostikaning o‘zi ushbu toifa o‘qituvchilarining bilim, malaka va kasbiy darajalari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot beradi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z faoliyati bo‘yicha diagnostika va baholash jarayoni to‘g‘risida ko‘nikmani egallashlari taqozo etiladi.

Pedagogik adabiyotlarda boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining o‘qitish mohiyati quyidagicha belgilangan:

- o‘quvchilarining bilimlarni o‘zlashtirishi va ularning tarbiyalanganlik darajasini har tomonlama o‘rganish;

- mazkur jarayonni tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish va baholash;

- bu jarayonni yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimlarini o‘zlashtirish va ularning tarbiyalanganlik darajasini har tomonlama o‘rganishda imkon qadar har bir o‘quvchi individual bog‘lanishga asoslaniladi. Bunda har tomonlama o‘rganish deganda o‘quvchilarning bilim, axloq va amaliy ko‘nikma darajalarini o‘rganish nazarda tutiladi. Keyingi paytlarda boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarining yangilanib borayotganligi o‘quvchilarning bilim darajasini diagnostika qilishda bugungi kun talablari nuqtai nazaridan yondashish taqozo etiladi. Ularning tarbiyalanganlik darajasini o‘rganishda esa o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tarkib topganligiga e’tibor qaratiladi. Chunki jamiyatimizda axloqiy munosabatlar ham innovatsion talablar asosida yangilanib bormoqda. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy ko‘nikma darajalarini aniqlashda ularning ta’limning keyingi bosqichlariga tayyorgarlik darjasasi o‘rganiladi. Bunda umumiy o‘rta ta’lim, ixtisoslashtirilgan ta’lim va Prezident maktablari ta’lim hujjatlariga asoslanish taqozo etiladi. Keyingi paytlarda o‘quvchilarning bilim, axloq va amaliy ko‘nikma darajalarini diagnostika qilishda inklyuziv ta’lim oluvchilarni ham o‘rganish taqozo etilmoqda. Shu jihatdan inklyuziv ta’lim oluvchilarning bilim va amaliy ko‘nikma darajalari baholanadi, ularning axloqiy fazilatlari o‘rganilish bilan cheklaniladi. Chunki inklyuziv ta’lim oluvchilar aqliy, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bo‘ladi. Bu hol ularning ruhiyatiga muayyan darajada o‘zgarish sabab bo‘ladi. Shu sababli bunday ta’lim oluvchilar maxsus mutaxassislar tomonidan diagnostika qilinadi. Demak, pedagogik oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga “Maxsus pedagogika” o‘quv fanini kengroq o‘qitish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining o‘qitish mohiyatida o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajasini tahlil qilish asosida xulosa chiqarish va baholash muhim o‘rin tutadi. Xulosa chiqarish va

baholashda faqat aniqlangan ma'lumotlarga tayanish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Bunda ta'lim muassasasining muhitiga e'tibor berish birlamchi hisoblanadi. Chunki aynan ta'lim muhiti o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholovchi mezonlardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim diagnostikasida o'qitish mohiyatini baholash nisbatan murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki olingen va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak. Bu borada bizning yondashuvimizga ko'ra, tavsiyalarni shakllantirishda ta'lim muassasasi muhiti va o'qituvchilarning malaka darajasini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda ishlab chiqilgan tavsiyalar asosli va amaliy xususiyat kasb etidi.

2. *Boshlang'ich ta'lim o'qitish samaradorligini diagnostika qilish.* Boshlang'ich ta'limda o'qitish samaradorligi keyingi paytlarda ta'lim tizimining asosiy muammosi hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'limning sifat samaradorligi butun ta'lim tizimiga baho berishda asos hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda o'qitish samaradorligini diagnostika qilishda o'quv fanlarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Mamlakatimiz tajribasi shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ko'p hollarda aniq va tabiiy fanlarni o'zlashtirish bo'yicha yuqori ko'rsatkichiga ega. Bu holni fan olimpiadalari misolida ham ko'rish mumkin. Shu jihatdan gumanitar fanlarni o'qitish sifati diagnostika qilinishi va muntazam ravishda uning natijalari asosida rivojlantirish yo'nalishlari belgilab borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bu borada ART texnologiyasidan foydalanish kutilgan samarani beradi. O'zbekiston Respublikasi "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" Davlat dasturida Ona tili, Adabiyot, Tasviriy san'at, Musiqa madaniyati kabi gumanitar fanlarning o'qitilish sifatini takomillashtirish vazifalari belgilangan. Shu jihatdan bu boradagi diagnostika tadbirda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

I) o'quv fanlarining o'quvchilar tomonidan tanlanishi;

- 2) o‘quv fanlari bo‘yicha bir necha o‘qituvchilarning saboq berishi;
- 3) o‘quv fanlari bo‘yicha mintaqaviy monitoringning amalga oshirilishi.

O‘quv fanlarining o‘quvchilar tomonidan tanlanishi deganda qo‘srimcha mashg‘ulotlarning tashkil etilishi va ularning sifat darajasini baholab borish nazarda tutiladi. O‘quv fanlari bo‘yicha bir nechta o‘qituvchilarning saboq berishi tajribali o‘qituvchilar imkoniyatlardan keng foydalanish maqsadida yo‘lga qo‘yilmoqda. O‘quv fanlari bo‘yicha mintaqaviy monitoring tumanlar va viloyatlar kesimida amalga oshiriladi hamda ularning natijadorligi baholanadi. Bularning barchasi diagnostika qilishda o‘quv fani+o‘quvchi+o‘qituvchi=o‘zlashtirish tizimiga amal qilishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish samaradorligini diagnostika qilish davriy amalga oshiriladi. Bunda choraklik va bir o‘quv yili davomida amalga oshirilgan diagnostika natijalariga o‘quv fanlari bo‘yicha qo‘srimcha mashg‘ulotlar, amaliy to‘garaklar va o‘qituvchilarning individual maxsus kurslarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ta’lim sifati deportamenti har besh yilda o‘quv fanlarini tanlash, o‘qitish, o‘quv adabiyotlarini yangilash va o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini baholaydi hamda maxsus diagnostika asosida ularni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqadi. Bunda ta’lim tizimining tajribali o‘qituvchilari ishtirot etadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda o‘qitish samaradorligini diagnostika qilish amaliy xarakterga ega bo‘ladi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini haftalik amaliyat davrida ana shunday diagnostika tadbirlari bilan tanishishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qitish samaradorligini diagnostika qilishda quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasi;
- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mahorat darajasi;

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat samaradorlik darajasi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini diagnostika qilishda ularning bilimi, ko‘nikmasi va malakasi o‘rganiladi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi muntazam ravishda o‘zi ustida ishlashi, o‘qitishning turli shakllari va vositalarini bilishi kerak. Eng murakkab sharoitlarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi xolis yechim topa olishi zaruriyat hisoblanadi. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik tarkibini tashkil qiladi va uni diagnostika qilishda ana shu asoslarga tayaniladi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga nisbatan juda ko‘p talablar qo‘yilgan. Shu jihatdan ularni mahorat darajasini diagnostika qilish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda o‘qituvchilarning darsliklar, ma’lumotlar hamda axborotlar bilan ishslash ko‘nikmasi o‘rganiladi hamda baholanadi. Chunki hozirgi jamiyatimizning rivojlanish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nisbatan keng ma’lumotlar berish taqozo etilmoqda, bu hol boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muntazam ravishda mahorat darajasini o‘rganib borishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat samaradorlik darajasi har bir o‘quv yilining yakunida o‘rganiladi va baholanadi. Aynan mana shu diagnostika tavsiyalariga binoan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish yoki ularni qayta tayyorlash tadbirlari belgilanadi. Shu jihatdan o‘qituvchilarning ta’til jarayoni imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda, ular bilan masofaviy ta’lim vositasida muntazam ishslash kutilgan samaranı beradi.

3. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayoni diagnostikasini rivojlantirish. Diagnostika – bu tekshirish emas, aksincha o‘rganish va baholashdir. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim o‘qitish jarayonini diagnostika qilish ishlarini rivojlantirib borish boshlang‘ich ta’limning sifat samaradorligiga erishish bilan bog‘liq masaladir. Buning uchun quyidigilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan ishslash;

2) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini diagnostik faoliyatga tayyorlash;

3) boshlang‘ich ta’limning o‘qitish jarayonini diagnostika qilishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar bilan ishslash deganda ularni diagnostika asoslari bilan tanishtirish nazarda tutiladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, maktabga tashrif buyurgan har bir mutaxassisni o‘qituvchilar tekshiruvchi sifatida qabul qilishadi. Shu jihatdan diagnostika ishi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis o‘qituvchi bilan hamkor ravishda faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunda boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayonini diagnostika qilish amaliy natijalarni beradi. Chunki diagnostika asoslaridan xabardor o‘qituvchi mazkur ishda faol ishtirok etadi. Shuningdek, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini diagnostik faoliyatga tayyorlanishi kerak. Bunda ular diagnostika jarayonida amalga oshiriladigan ishlar, turli savolnomalar, testlar, hujjatlar bilan ishslash va adabiyotlardan foydalanish ko‘nikmasini egallashi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ta’kidlash lozimki, diagnostika va baholash o‘qitish sifatining eng muhim asosidir. Bundan tashqari boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayonini diagnostika qilishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada bizningcha, xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasida boshlang‘ich ta’limning o‘qitish jarayonini diagnostika qilish maxsus mutaxassislar tomonidan bir o‘quv yili davomida amalga oshiriladi va unda mакtab jamoasi faol ishtirok etadi. Bu texnologiyada asosiy e’tibor boshlang‘ich ta’lim muammolarini aniqlashga qaratiladi. Buning natijasida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning faolligi, tashabbuskorligi hamda o‘qitishning samaradorligiga erishish mumkin bo‘ladi. Shu ma’noda zamонавиy texnik uskunalar va texnologiya loyihalardan foydalangan holda qulay, oson va tez samara beradigan diagnostika texnologiyalarini ishlab chiqish muhim yechimlardan biridir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayoni diagnostikasini rivojlantirish muhim masalalardan biri bo‘lib turibdi. Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini diagnostika asoslari bilan qurollantirish;
- o‘qituvchilarning malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida diagnostika asoslari bo‘yicha mahorat saboqlarini o‘tkazish;
- tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostika bo‘yicha individual ko‘nikmalarini ommalashtirib borish.


Oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini diagnostika asoslari bilan qurollantirishda pedagogik turkumdagi fanlarning ahamiyati katta. Buning uchun pedagogik turkumdagi o‘quv fanlari diagnostika asoslari mavzulari va o‘quv materiallari bilan boyitilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur ish diagnostika bo‘yicha mutaxassislikka ega o‘qituvchilar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi.

O‘rganishlar jarayoni shuni ko‘rsatdiki, keyingi paytlarda o‘qituvchilarning malaka oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslarida fanlar ko‘laming kengayganligi ko‘zga tashlanadi. Biroq bunday kengayish ijtimoiy fanlar hisobiga amalga oshirilmoqda. Shu ma’noda mazkur kurslar mashg‘ulotlarida pedagogik mahorat bo‘yicha eng muhim asoslardan biri bo‘lgan diagnostika metodikasi va nazariyasi bo‘yicha saboq berish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini diagnostika jarayoniga tayyor bo‘lishlari kerak.

Mamlakatimizda diagnostika asoslari bo‘yicha tajribali o‘qituvchilar mavjud. Bunday o‘qituvchilar ayniqsa, ta’lim tizimida yillar davomida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan o‘qituvchilar guruhiга kiradi. Shu sababli tumanlar va viloyatlar kesimida diagnostika asoslari bo‘yicha tajriba va malakaga ega o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bunday o‘qituvchilar diagnostikaning maqsad va muddaolarini juda yaxshi bilishadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim didaktikasi diagnostikasi bir qator muhim asoslarga tayanadi. Shu sababli mazkur asoslar oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan chuqr o‘zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim didaktikasining diagnostikasi mazkur ta’lim bosqichining sifat samaradorligini ta’minlovchi omillardan hisoblanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliv pedagogik ta’lim jarayonida mazkur masalalar bo‘yicha aniq ko‘nikmalarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Buning uchun haftalik amaliyot davrida faol bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:



2-rasm. Boshlang‘ich ta’lim didaktikasi diagnostikasining asoslari

III BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI DIAGNOSTIKASI

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limning vazifalari takomillashib bormoqda. Bunda o‘quvchilar, o‘qituvchilar, maktab jamoasi, otanonalar va jamoatchilikning chuqur hamkorligi taqozo etiladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim metodikasini diagnostika qilish bilan bu jarayonni rivojlantirish va uning sifatiga erishish muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich ta’lim metodikasi diagnostikasi masalasi tahliliga tortamiz.

1. Boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash zaruriyati. Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limning vazifalari kengayganligi munosabati bilan uning metodikasini yangilash dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun diagnostika imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash uchun quyidagilar diagnostika qilinishi kutilgan samarani beradi:

- 1) o‘quv fanlarining samaradorligi;
- 2) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajriba darajasi;
- 3) boshlang‘ich ta’limda xalqaro dasturlarning samaradorligi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlarining samaradorligi keng ko‘lamli diagnostika qilinishi kerak. Unda o‘quv fanlarini tanlash, o‘quv materiallarining ko‘p variantligini tayyorlash va o‘qitish jarayonini muqobil shakllarda tashkil etish ishlari diagnostika qilinadi. Shu jihatdan o‘quv fanlarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, keyingi paytlarda tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quv fanlarini tanlash yuzasidan tajribaga ega bo‘lindi. Bunda Matematika fanida ushbu o‘quv fanining barcha sohalari bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni berish tajriba-sinovdan o‘tdi. Shu sababli diagnostika jarayonida boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini tanlash uslublarini ishlab chiqish ularni o‘qitish samaradorligiga asos bo‘ladi. O‘quv materiallari va mashg‘ulotlarning shakllari diagnostika qilishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining fikr-mulohazalari va tavsiyalarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajriba darajasi muntazam ravishda o‘rganilib va baholanib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu masala hozircha o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslari vositasida amalga oshirilmoqda. Biroq, hududiy xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining tajriba darajasi hududlar kesimida diagnostika qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki diagnostika jarayonida o‘qituvchilarning yutuqlari, muammolari va ularning faoliyatida duch kelinayotgan kamchiliklar o‘rganilib, baholanadi. Shu sababli bu jarayon mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’limda xalqaro ta’lim dasturlarining samaradorligini diagnostika qilish nisbatan yangi yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida PISA va TIMSS xalqaro ta’lim dasturlaridan foydalanish amalga kiritilgan. Shu sababli mazkur xalqaro ta’lim dasturlari samaradorligini o‘rganish va baholashda YUNESKO tavsiyalariga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Misol uchun mazkur tashkilot tomonidan qo‘yilgan asosiy talablardan biri o‘quvchilarни amaliy faoliyatga tayyorlashdir. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda xalqaro dasturlar samaradorligini diagnostika qilishda ana shunday talablardan kelib chiqish metodik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

E’tibor berilsa, aynan diagnostika natijasida boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash imkoniyatlarga ega bo‘linadi. Shu sababli mazkur masala va uning asoslari bo‘yicha oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ko‘nikmaga ega bo‘lishi zaruriyat bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilab borish zaruriyati uni diagnostika qilishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash zaruriyatida quyidagi muammolarning yechimini topish dolzarb bo‘lib turibdi:

- boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash asoslarini aniqlab olish;

- boshlang‘ich ta’lim metodikasining hozirgi zamon xorijiy tajribalarini chuqur o‘rganish;

- boshlang‘ich ta’lim metodikasining yangilash asoslarini ishlab chiqish.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash asoslarini aniqlab olishda diagnostik yondashuvga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday diagnostik yondashuvlar boshlang‘ich ta’lim metodikasi nega yangilanishi kerak, agar yangilanish asosli bo‘lsa nimalarga tayanish lozim va umuman boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash asoslarining qaysi jihatlariga e’tibor berish darkor savollariga asoslanish maqsadga muvqofiq bo‘ladi. Diagnostik jarayonda bu savollarga asosli javob topish uchun o‘rganish amalga oshiriladi. Chunki bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim metodikasida butunlay yangicha o‘zgarishlar bo‘layotganligi sir emas. Misol uchun, o‘qitishning turli shakllari amaliyotga joriy ejtilayotganligi munosabati bilan boshlang‘ich ta’lim metodikasining an’anaviy yondashuvlari o‘zini oqlamayotganligi ma’lum bo‘lib bormoqda. Chunki keng amalda bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim metodikasi asosan an’anaviy ta’lim shakliga moslashgan. Amaldagi mustaqil va masofaviy ta’lim shakllarida boshlang‘ich ta’lim metodikasining innovatsion yondashuvlarini tadbiq etish zaruriyat bo‘lib turibdi. Shu jihatdan bu muammolarni diagnostik o‘rganish va ularning yechimini topish boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash asoslarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi zamon xorijiy mamlakatlarida boshlang‘ich ta’lim metodikasiga nisbatan individual va umumiyl yondashuvlar mayjud. Bunda individual yondashuv mamlakatlarning ehtiyojidan kelib chiqib tarkib topgan, umumiyl yondashuv esa boshlang‘ich ta’limni ta’lim oluvchilarga kutilgan darajada berish holati bilan asoslanadi. Shu sababli Yevropaning bir qator mamlakatlarida boshlang‘ich ta’lim metodikasida o‘quvchilarning ijodiy fikrini va mustaqil faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishga ustuvor darajada ahamiyat berilmoqda. Bu tajriba mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim metodikasida ham tarkib

topa boshlaganligini ta'kidlab o'tish joiz. Ayni paytda, mamlakatimiz ehtiyojlarini hisobga olgan yondashuvlar ham boshlang'ich ta'lism metodikasini yangilash zaruriyatida asos sifatida qabul qilinishi taqozo etiladi. Biroq keyingi paytlarda muayyan mamlakatning metodikasini mutloq darajada qabul qilish hodisasi ham tarkib topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "dunyo mamlakatlaridan o'rganish yaxshi biroq bu hol milliy qadriyatlarimizga mos bo'lishi kerak". Aynan mana shunday yondashuv boshlang'ich ta'lism metodikasi bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganishda asos sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lism metodikasini yangilanish asoslarini ishlab chiqish ham zaruriyat bo'lib turibdi. Chunki bunday asoslarni ishlab chiqish diagnostika jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. Bizning yondashuvimizga ko'ra, mazkur masalaga milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, ilmiylik va amaliylik, o'qituvchi faoliyati va samaradorlik, o'quvchilarining o'zlashtirish darjasи va ularning tayyorgarlik holati tamoyillariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tamoyillar boshlang'ich ta'lism metodikasini yangilash asoslarini ishlab chiqishda tayanch yondashuv sifatida qabul qilinishi ishlab chiqiladigan asoslarning tayanch omillariga tayanishiga xizmat qiladi.

Umuman boshlang'ich ta'lism metodikasini yangilash zaruriyati muntazam ravishda idrok etilib borishi kerak. Chunki boshlang'ich ta'lism jarayoni muntazam yangilanib borayotganligi ma'lum.

2. Boshlang'ich ta'lism metodikasining ilg'or tajribalarini takomillashtirish zaruriyati. Boshlang'ich ta'lism metodikasini rivojlantirishda diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bugungi kunda mamlakatimizning boshlang'ich sinf o'qituvchilari eng muhim vazifani bajargani holda o'quvchilar bilan ishlashda imkonqadar yangiliklarga tayanishga harakat qilmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lism metodikasining

ilg‘or tajribalarida quyidagi xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanib turadi:

1) har bir o‘quvchi bilan individual ishlash va ularning iqtidorini rivojlantirish;

2) o‘quv adabiyotlaridan ijodiy foydalanish;

3) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zaro tajriba almashishi.

Mazkur masalalar diagnostika jarayonida o‘rganilib eng ilg‘or tajribalar ommalashtirilishi zaruriyat bo‘lib turibdi. Har bir o‘quvchi bilan individual ishlash o‘qituvchining vaqt omilidang oqilona foydalanish tajribasini namoyon qiladi. Iqtidorli o‘quvchilarning layoqatini rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan maxsus yondashuv va vaqt talab qilishini ta’kidlash joiz. Bunda o‘quvchilarning iqtidori aniqlanib, ularni rivojlantirish uchun mustaqil ishlanmalarga ko‘proq e’tibor berish va amaliy to‘garaklar imkoniyatlaridan foydalanish metodik jihatdan samarali hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshqa sinf o‘quvchilariga nisbatan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aniq namoyon bo‘lib turadigan iqtidorga ega bo‘lishadi va shu sababli bunday iqtidorni rivojlantirish zaruriyat hisoblanadi. O‘quvchilar bilan individual ishlash va ularning iqtidorrini rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodikasini kuchayib borishiga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur masala diagnostikasida asosiy e’tibor o‘qituvchilar metodikasining samaradorligiga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quv adabiyotlarin yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda Shu sababli ulardan ijodiy foydalanish kutilgan samarani beradi. Unga ko‘ra, darslik mavzularida bayon qilingan matn mavzulari yo‘naltiruvchi asos sifatida qabul qilinadi va o‘qituvchi tomonidan yangi ma’lumotlar bilan boyitilib o‘quvchilarga taqdim etiladi. Ana shunday ijodiy yondashuvni diavgnostika vositasida baholash samarali hisoblanadi. Shu jihatdan diagnostika ishini amalga oshirishda faqat o‘rganish, tahlil qilish va xulosa chiqarish uslublariga tayanish tavsiya etiladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nisbatan

ko‘pchiligidagi o‘quv adabiyotlaridan ijodiy foydalanish metodikasi shakllangan. Chunki ular amaliy faoliyatda darsliklarning takomillashishiga duch kelmoqda. O‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida bu jarayon keyingi paytlarda qizg‘in muhokama qilinayotganligini eslatib o‘tish joiz. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, ilg‘or o‘qituvchilarning o‘quv adabiyotlaridan ijodiy foydalanish tajribasini muntazam ravishda targ‘ibot qilib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim muassasalari va matabning hamkorligidan foydalanish tavsiya etiladi. Shu jihatdan talabalar mazkur masalalar asoslari bilan haftalik pedagogik amaliyot davrida tanishishi eng muhim yo‘nalishlardan biridir.

Bundan bir necha yil avval mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zaro tajriba almashish an’anasi mavjud edi. Keyingi paytlarda bu masala faqat o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida amalga oshirilmoqda. Biroq boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zaro tajriba almashish faoliyatini diagnostika qilishda ularning mintaqaviy faoliyatiga e’tibor berish kerak bo‘ladi. Shu sababli bu borada onlayn ta’lim shaklining imkoniyatlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Unga ko‘ra, mакtab jamoasi yoki sinf rahbarlari muntazam ravishda o‘qituvchilarning tajriba almashish jarayonini onlayn shaklda tashkil etib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bir o‘qituvchining tajribasi ikkinchi o‘qituvchi uchun muhim tajriba maydoni bo‘lib xizmat qiladi. Natijada boshlang‘ich ta’lim metodikasini diagnostika qilishda o‘ziga xos yondashuvlar tarkib topadi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasining mamlakatimizda tarkib topgan ilg‘or tajribalarini takomillashtirib borish zaruriyati ham muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarni tayanch sifatida qabul qilish diagnostik jarayonning ahamiyatini belgilaydi.

- chekka hududlardagi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ilg‘or metodik tajribasini o‘raganib borish;

- ilg‘or o‘qituvchilarning metodik tajribalarini hududlar kesimida ommalashtirish yo‘nalishlarini belgilash;

- ilg‘or tajribalarining eng muhimlarini rag‘batlantirish uchun tavsiya etish.

O‘rganishlar va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizning chekka hududlardagi ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan juda ko‘p boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ilg‘or metodik tajribaga ega. Chunki ular butun faoliyati davomida boshlang‘ich ta’lim jarayoni bilan amaliy shug‘ullanib kelmoqda va yillar davomida boshlang‘ich ta’limga nisbatan qabul qilingan me’yoriy hujjatlarning ijrosida ishtirok etgan. Shu sababli bunday o‘qituvchilarning tajribalarini diagnostika asosida o‘rganish va ularni umumiylashtirish zaruriyat bo‘lib turibdi. Xorijiy mamlakatlarda bunday faoliyatga juda katta e’tibor berildi. Bizningcha, mazkur masalani diagnostika vositasida o‘rganishda talabalarning haftalik pedagogik amaliyoti imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi va buning uchun iqtidorli talabalar diagnostik jarayonda ishtirok etishi muhim samarani beradi. Chunki bu jarayonda talabalar muntazam ravishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini bilan hamkorlikda bo‘lishadi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasining ilg‘or tajribalarini hududlar kesimida diagnostika vositasida o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda tumanlararo (shaharlararo) va viloyatlararo o‘rganish jarayoniga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu bilan ilg‘or o‘qituvchilarning qaysi hududlarda metodik tajribalarga egaligi darjasini ham aniqlanadi. Natijada hududlar kesimida ilg‘or boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limiy-tarbiyaviy faoliyati va amaliy faoliyat samaradorligi to‘g‘rirsida muhim ma’lumotlarga ega ham bo‘linadi. Bunday ma’lumotlar vositasida boshlang‘ich ta’lim metodikasining qaysmi vositalari va shakllari qaysi hududlarda ilg‘or tajriba tusini olganligi diagnostika qilinadi. Buning uchun diagnostik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ta’lim tashkilotlari faol bo‘lishi lozim.

Diagnostik jarayonning eng muhim vazifalaridan biri ta’lim jarayonida erishilgan yutuqlarni rag‘batlantirish uchun tavsiyalar

majmuasini taqdim etishdir. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha ilg‘or tajribalarga ega o‘qituvchilar qonunchilik asosida moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib borilishi boshlang‘ich ta’lim metodikasining takomillashtirishda mug‘im omillardan biri hisoblanadi. Rag‘batlantirilgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar o‘z faoliyatlariga nisbatan yanada mas’uliyat bilan yondashishi tajribadan ma’lum. Shu ma’noda rag‘batlantirishning turlari va vositalari ko‘p. Buning uchun diagnostika natijasi asosida rag‘batlantirishning bir qator turlari qo’llanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, mukofotlarga tavsiya etish, ilg‘or tajribalarni axborot-kommunikatsion vositalar yordamida targ‘ibot qilish, beg‘araz homiylik vositasida ular faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich sinf xonalarini zamonaviy jihozlash kabilar shular jumlasidandir. Buning natijasida diagnostik jarayonning amaliy samaradorligi va boshlang‘ich ta’lim metodikasining ilg‘or tajribalarini takomillashtirish yo‘nalishlariga ega bo‘linadi.

3. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha individual metodlarga ega bo‘lish zaruriyati. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi ko‘p mehnat talab qiladigan soha bo‘lib, uni yillar davomida o‘zlashtirish mumkin. Shu jihatdan ilg‘or boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodikasini diagnostika qilib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki individual metodikada yangiliklar, o‘quv adabiyotlari bilan ishslash bo‘yicha o‘ziga xos yondashuvlar va o‘quvchilarni faollashtirishga doir tajribalar mujassam bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda individual metodikaga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mavjud. Bunday o‘qituvchilar bilan ommaviy ravishda uchrashuvlar, suhbatlar va treninglar o‘tkazib borish kutilgan samarani beradi. Ana shunday o‘qituvchilarning oliy pedagogik ta’lim muassasasi bilan hamkorligini tashkil etish va ularning metodikasini ommalashtirish diagnostik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim jarayonida individual metodikalarga nisbatan “xususiy metodika” atamasi ishlatilmoqda. Biroq individual metodika yillar tajribasidan o‘tgan uslubdir va xususiy metodika esa bir

shaxsning o‘qitish faoliyatini ifodalaydi. Shu sababli diagnostika jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining individual metodikasiga e’tibor berish va uni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim metodikasi diagnostikasi ilmiy yondashuv va amaliy faoliyat tamoyillariga tayanadi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bu masalalarni chuqur o‘zlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi tarkibiga kiradi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha eng asosiy masalalardan biri boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodlarga ega bo‘lishidir. Aslida individuallik o‘qituvchining o‘z vazifasini kutilgan darajada bajarish va o‘zining layoqatini namoyon qilish omilidir. Shu jihatdan individual metodlarni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tadbirlarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

- oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha individual metodga ega bo‘lishini ta’minalash;

- amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodlarini o‘qituvchilarining malaka oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslari vositasida nazariy jihatdan boyitib borish;

- individual metodlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanish.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodikaga ega bo‘lishini ta’minalash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagogik turkumdagи fanlar mavzulari boshlang‘ich ta’lim metodikasi metodlari bo‘yicha boyitilishi, individual metodika asoslari bo‘yicha ma’lumotlar bilan takomillashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, talabalarning haftalik pedagogik amaliyot davrida individual metodikani o‘zlashtirishnini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi va buning eng yaxshi mexanizmlaridan biri ularni amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilarga biriktirib qo‘yishdan iborat. Bundan tashqari, mustaqil


ta’lim vositasida talabalarda individual metodika ko‘nikmasini shakllantirish ham kutilgan samarani beradi. Shu ma’noda pedagogik turkumdagi fanlar, haftalik amaliyat va mustaqil ta’lim mexanizmlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodikaga ega bo‘lishidagi muhim tayanchlar sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakatimizda amaliy faoliyatda bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodikasi yangi ma’lumotlar va yangicha yondashuvlar bilan boyitib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslarida individual metodika bo‘yicha treninglar, amaliy mashg‘ulotlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar kabi tadbirlarning imkoniyatlari keng ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. Chunki amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zining individual metodikasini rivojlantirish va yangi ma’lumotlar bilan boyitib borishga ehtiyoj sezadi. Bu hol boshlang‘ich ta’lim jarayonida mudom amalga oshirilayotgan yangilanish bilan bevosita bog‘liqdir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida taqdim etilgan ma’lumotlarni ishonch va tezkor ravishda o‘zlashtirishadi.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha yangicha asoslarga tayangan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bunday ilmiy-tadqiqot ishlarida taklif etilgan tavsiyalarni hisobga olish va ular asosida boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, bunday tadqiqotlarda o‘yin texnologiyasi, mustaqil faoliyat metodikasi, o‘quvchilarning tashabbuskor faoliyati kabi metodikalar ishlab chiqilganligini eslatib o‘tish joiz.

Bularning barchasi diagnostik faoliyat asosida amalga oshirilishi kerak. Chunki aynan diagnostik faoliyat boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha o‘qituvchilarning individual metodlarga ega bo‘lish omillarini ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lism metodikasi diagnostikasi muntaзам ravishda ilmiy tadqiq etib borilishi dolzARB bo'lib turibdi. Bunda asosiy masala mакtab va oliv ta'lism muassasasining hamkorligidir. Bu amaliy mexanizmlardan oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi. Bugungi kunda bunday hamkorlikning ko'rinishi sifatida talabalarining haftalik pedagogik amaliyoti tarkib topdi va bu amaliyotning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kerak. E'tibor bering:



3-rasm. Boshlang'ich ta'lism metodikasi diagnostikasi omillari.

IV BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSHQARUVI DIAGNOSTIKASI

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonini o‘ziga xos metodlar va texnologiyalar asosida boshqarish bo‘yicha milliy pedagogik tajribamiz mavjud. Chunki XX asrning 20-yillarida dastlab boshlang‘ich ta’lim savodxonlikni tugatish va ta’lim jarayonining eng muhim bo‘g‘ini sifatida belgilanib, 40-yillar boshiga qadar mazkur ta’lim bosqichi maxsus boshqarilganligini eslatib o‘tish joiz. Buning natijasida xalqimiz avvalo lotin yozuvidagi alifboni, 1929 yildan boshlab kirill yozuvidagi alifboni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Buning natijasida xalqimizda arab, lotin va kirill yozuvidagi savodxonlik darajasi tarkib topdi. Sobiq Maorif vazirligining asosiy vazifasi boshlang‘ich ta’lim asosida xalqni savodxon qilish, ularni barpo etilayotgan yangi hayot jarayoniga olib kirish va sobiq Ittifoq xalqlari orasida yozuv, hisob va o‘qish bo‘yicha dastlabki o‘rnlarni egallash yutuqlariga sazovor bo‘lingan. Bularning barchasi Pedagogika fanimiz tariximi boshlang‘ich ta’lim boshqaruvining o‘ziga xos tajribasi tarnkib topishiga olib kelgan. Keyinchalik 1940 yillardan boshlab umumiy o‘rtta ta’lim tizimiga o‘tilgach boshlang‘ich ta’lim ta’lim tizimining asosiy bosqichlaridan biri sifatida saqlanib qolgan. Mamlakatimizning deyarli barcha umumta’lim mакtablarida boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini amalga oshiruvchi O‘quv bo‘limi mudirlari lavozimi amalda bo‘lgan. Bu lavozim mas’ullari boshlang‘ich ta’lim muammolari hal etib borish va uni rivojlantirishning imkoniyatlarini yaratish bilan shug‘ullanilgan. Shuningdek, mamlakatimizda ilk bor tashkil etilgan Samarqand davlat pedagogika universitetida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini va boshlang‘ich ta’limni boshqaruvchi mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Mustaqillik yillariga kelib boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rtta ta’limning asosiy bosqichi sifatida saqlanib qoldi va uning boshqaruvi takomillashtirib borildi. Natijada boshlang‘ich ta’limning vazifalari kengayib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hozirgi zamon talablari asosida voyaga

yetkazish ishida muhim tizimi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini diagnostika qilish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu o‘rinda e’tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

1. *Boshlang‘ich ta’limni tashkil etish diagnostikasi.* Boshlang‘ich ta’limni tashkil etish diagnostikasi boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini baholashdagi eng muhim tizimlardan biridir. Chunki boshlang‘ich ta’lim samaradorligi aynan uni tashkil etish muammosi bilan bog‘liqidir. Shu sababli boshlang‘ich ta’limni tashkil etishni diagnostika qilishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- a) mavjud sinfxonalarining talab darajasidja jihozlanganligi, texnik uskunalar bilan ta’minlanganligi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun qulayliklarga egaligi;
- b) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’limni amalga oshirishga tayyorligi;
- v) boshlang‘ich ta’lim o‘quv adabiyotlarining yetarli darajada mavjudligi.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limni tashkil etish diagnostikasining asoslarini belgilaydi. Shu jihatdan asosiy e’tibor sinfxonalarining qulayligiga qaratiladi. Bunda texnik jihozlar va uskunalarning yetarligi, ularning sanitariya va gigiyena talablariga javob berishi, sinfxonalarining ob-havosi mo‘tadil bo‘lishi, o‘quvchilar uchun shart-sharoitlarning yuqoriligi masalalari o‘rganiladi. Aynan bu masalalarni o‘rganish boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda me’yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanilganligini namoyon qiladi. Tajribali pedagoglar eng avvalo boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda ana shu jihatlarga asosiy e’tiborni qaratadi. Diagnostika jarayonini amalga oshiruvchi mutasaddi bulardan xabardor bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’limni amalga oshirishga tayyorligi masalasini diagnostika qilish ham muhim vazifalardan biridir. Unda o‘qituvchilarning o‘quv jihozlari bilan ishslash ko‘nikmasi, o‘quvchilarning psixologiyasini bilish malakasi va boshlang‘ich sinflarda ijodiy muhit yarata olish metodlariga e’tibor

qartiladi. Shu sababli diagnostika jarayonini ana shu masalalar o‘rganilib baholanadi. Bu hol o‘quv yilining boshida va yakunida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quv yili boshida amalga oshirilgan diagnostika tavsiyalarini boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorlarlik ko‘lamini kuchaytiradi, o‘quv yili yakunida amalga oshirilgan diagnostika tavsiyalarini o‘qituvchilarining mehnat ta’tili davrida yangi adabiyotlar bilan tanishish va yangi o‘quv materiallari tayyorlash imkonini beradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’limni amalga oshirishga tayyorligi diagnostika vositasida rivojlantirib boriladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limiga muntazam ravishda yangi o‘quv adabiyotlari kiritib borilayotganligi ma’lum. Shu jihatdan o‘quv yili boshlanishidan avval boshlang‘ich ta’lim o‘quv adabiyotlarini o‘rganish, ularning amaliy samaradorligini baholash va mavjud muammolarni hal etish tavsiyalarini ishlab chiqish kutilgan samarani beradi. Shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quv adabiyotlarining muntazam yangilanib borilayotganligi ularni ilmiy asoslarda doimiy ravishda diagnostika qilib borishni taqozo qiladi. Bu jarayon bilan mutaxassislar va ta’lim boshqaruvi mutasaddilari shug‘ullanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limni tashkil etish diagnostikasi uni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Shu sababli bu masalaga innovatsion yondashuv asosida munosabatda bo‘lish va amaliy ishlarni joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. *Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish muhitini diagnostika qilish.* Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni o‘qitish muhitini diagnostika qilish muhim yo‘nalishlardan biridir. Bunda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- a) boshlang‘ich ta’limda o‘ziga xos pedagogik muhitning mavjudligi;
- b) o‘quvchilarining ta’lim olishga tayyorlarligi;
- v) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangiliklarga intiluvchanligi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘ziga xos pedagogik muhitning mavjud bo‘lishi ta’limga oid me’yoriy hujjatlarda qo‘ylgan talablar sirasiga kiradi. Chunki bunda pedagogik muhit deganda o‘qituvchilarning bir jamoa bo‘lib birlashuvi, o‘quvchilarning aqliy, jismoniy, ruhiy va estetik jihatdan to‘g‘ri rivojlanayotganligi hamda o‘qitish jarayonining jalb etuvchanlik xususiyatga ega bo‘lishi masalalariga e’tibor qartiladi. Misol uchun, boshlang‘ich ta’limning jalb etuvchanlik xususiyati o‘quvchilarning ixtiyoriy ravishda maktabgacha intiluvchanligida namoyon bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda mavjud pedagogik muhitni muntazam ravishda va butun o‘quv yili davomida diagnostika qilib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday diagnostik jarayonda pedagogik muhitni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar majmuini ishlab chiqishga asosiy e’tibor qaratiladi. Demak, diagnostikani amalga oshiruvchilar pedagogik muhit bo‘yicha o‘ziga xos tushunchalarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik muhitning talab darajasida bo‘lishi butun umumiyl o‘rta ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur omildan oqilona foydalanish va uni baholab borish boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim olishga tayyorgarligi masalasini o‘rganish va baholash ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilardagi qobiliyat darjasasi, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda kiyinishi, o‘zaro munosabatlari va o‘qituvchilarga bo‘lgan intilishlari masalalari o‘rganiladi. Shu sababli diagnostika jarayonida mazkur masalalarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Diagnostika jarayoni o‘quvchilarning ta’lim olishiga tayyorgarligi masalasini chuqur o‘rganish bilan ta’lim oluvchilarning muammolarini hal etish tavsiyalarini ishlab chiqadi. Asosiy e’tibor o‘quvchilarning faolligiga qaratilishi bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo‘lib turibdi. Shu jihatdan qobiliyat, faollik va harakatchanlik boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim olishga tayyorgarligi darajasini belgilaydi. Diagnostika jarayonida ana shu masalalar o‘rganilib baholanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning yangilikka intiluvchanligi muhim o‘rin tutadi. Chunki muntazam ravishda boshlang‘ich ta’lim jarayoni, uning nazariyasi va metodikasiga doir yangiliklar yuzaga kelib bormoqda. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich ta’limga oid har bir yangilikni ommaviy axborot vositalari va tegishli adabiyotlar orqali kuzatib borishi taqozo etiladi. Boshlang‘ich ta’lim yangiliklaridan xabardorlik o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini kuchaytiruvchi eng muhim omillardan biridir. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangilikka intiluvchanligini diagnostika qilishda ular muntazam ravishda murojaat qiladigan ommaviy axborot vositalari turlari, o‘quv adabiyotlari va ma’lumotlarni olish manbalari o‘rganiladi. Bunda olingan manbalar va ma’lumotlar ilmiy jihatdan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi. Shu sababli bu masalalarni diagnostika qilish eng muhim va dolzarb masalalardan hisoblanadi.

3. Boshlang‘ich ta’limning istiqbolli yo‘nalishlari diagnostikasi.

Boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi diagnostikasida eng asosiy masalalardan biri boshlang‘ich ta’limning istiqbolli yo‘nalishlarini o‘rganishdir. Chunki istiqbolli yo‘nalishlar boshlang‘ich ta’limni rivojlantiruvchi asosiy tayanchlar hisoblanadi. Mazkur masalani diagnostika qilishda quyidigilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) maktab miqyosida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarga egaligi;
- b) mamlakat miqyosida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarga egaligi;
- v) tajribali o‘qituvchilarning boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarga egaligi.

Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish sharoitida maktab miqyosida boshlang‘ich ta’limning istiqbolli yo‘nalishlarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Chunki aynan istiqbolli yo‘nalishlar boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning eng muhim tayanchlaridan biridir. Shu jihatdan

boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha mактабning istiqbolli yo‘nalishga eга bo‘lishini diagnostika qilishda butun o‘quv yili davомida amalga оshiriladigan ta’limiy va tarbiyaviy tadbirlarni o‘rganish, ularning natijasini baholash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu bilan kelgusi o‘quv yili uchun maktab jamoasiga boshlang‘ich ta’limning istiqbolli yo‘nalishlarini aniq shart-sharoitlardan kelib chiqib belgilash tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlariga eга bo‘linadi. Har bir mактабning boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli rejagi eга bo‘lishi hududlarda sog‘lom raqobatni yuzaga keltiruvchi, o‘quvchilar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini faolldashtiruvchi motivatsiya tarkib topadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, har bir mактабning boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarini muntazam diagnostika qilish ularga metodik ko‘rsatishning muhim omillaridan hisoblanadi. Shu sababli bu borada maktab ta’limini boshqaruvchi muassasalar faollik ko‘rsatishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar davlat dasturlari va tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab qо‘yilgan. Shu jihatdan mazkur masalani diagnostika qilishda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha узоq muddatli yo‘nalishlarni belgilash va ularning ijrosiga diqqat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Diagnostika jarayonida mamlakat miqyosidagi boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli yo‘naltirishlar kamida 5 yilga mo‘ljallanishi, ularda ta’lim, tarbiya va ko‘nikmalarni yangi texnologiyalar asosida rivojlantirishning rejali, boshlang‘ich ta’limni yuksak malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan ta’minlashning mo‘ljallari va boshlang‘ich ta’lim boshqaruvini raqamlashtirishning mexanizmlari aniq aks etgan bo‘lishi hamda mazkur masalalarni o‘rganish va baholash muhim ahamiyatga eга. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar bir marotaba belgilanib qolmasdan, o‘quv yillari yakunida ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish mumkin hisoblanadi. Chunki jamiyatimizning


rivojlanish jarayoni yangiliklar takomillashtirishlar tamoyillariga asosiy e'tiborni qaratmoqda. Bu hol boshlang'ich ta'lim diagnostikasida ham muntazam ravishda takomillashtirib borish an'analariga rioya qilishni taqozo etadi.

Hozirgi zamон boshlang'ich ta'lim ehtiyojlariga ko'ra mamlakatimizning tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilar muhim rol o'ynaydi. Chunki tajribali o'qituvchilar o'zlarining yillar davomida tarkib topgan kasbiy bilim, amaliy metodika va faoliyat samaradorligi asoslarini boshlang'ich ta'limga taqdim etishi bilan uning rivojlanishiga muhim hissa qo'shamdi. Shu jihatdan tajribali o'qituvchilarning boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha individual yo'naliшlarga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, juda ko'pchilik tajribali o'qituvchilarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha yangicha fikrlar mavjud. Aynan mana shu fikrlarni umumlashtirgan holda ularning istiqbolli yo'naliшlarni belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda diagnostika jarayonida tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rejalari, metodik mo'ljallari va amaliy maqsadlari o'rganilishi, baholanishi va ularning tahlili amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, muayyan hududdagi tajribali o'qituvchilarning individual istiqbolli yo'naliшlarni namuna sifatida belgilash, ulardan o'rganish va har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshlang'ich ta'limni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalarini ishlab chiqishga doir tavsiyalarini shakllantirish muhim ahamiyatga. Diagnostika jarayonida ana shu masalalarga diqqat qilinishi kutilgan samarani beradi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim boshqaruvi diagnostikasi o'zining muhim xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli mazkur masalalarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tomonidan chuqur o'zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim boshqaruvi diagnostikasi negizlarini boshlang'ich ta'limni tashkil etish, o'qitish muhiti va boshlang'ich ta'limning istiqbolli rejalarga ega bo'lishi tashkil qiladi. Mazkur masalalarning nazariy, metodik va amaliy asoslarini o'rganish

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega.



4-rasm. *Boshlang'ich ta'lim boshqaruvi diagnostikasi omillari.*

V BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM DIAGNOSTIKASINI TASHKIL ETISHNING ME’YORIY ASOSLARI

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini amalga oshirishda me’yoriy hujjatlarga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Chunki me’yoriy hujjatlar diagnostik faoliyatning huquqiy asoslarini belgilab beradi va uning natijalarini qonuniylashtiradi. Shu jihatdan bu o‘rinda mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limi diagnostikasining eng muhim me’yoriy asoslari tahliliga tortamiz.

1. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining qonuniy asoslari.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining qonuniy asoslari hisoblanadi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasida har bir shaxsning bilim olishi va erkin kasb-hunar tanlashi belgilab qo‘yilgan. Aynan mana shu moddaga asosan bilim berish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini diagnostika qilish qonuniy hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Maktabgacha ta’lim hamda tarbiya to‘g‘risida”gi qonunlarida ta’lim ishlari davlat nazoratida bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Aynan mana shunday huquq boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini amalga oshirish uchun qonuniy asoslardan biri hisoblanadi va diagnostika vositasida ta’lim ishlarining davlat nazorati amalga oshiriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida har bir shaxsning butun hayot davomida ta’lim olishi alohida belgilangan va bunda shaxsning yoshi, jismoniy, aqliy yoki ruhiy imkoniyatlari hisobga olinmaydi. Shu jihatdan diagnostika jarayonida shaxsning ta’lim olish huquqiga asosan o‘rganish va baholash ishlari amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida har yil yakunida shaxslarning, jumladan, o‘qituvchilarining o‘z daromadlari to‘g‘risida dekloratsiya taqdim etishi belgilangan. Mazkur qonuniy asos diagnostika jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining moddiy, iqtisodiy va moliyaviy ta’minotini o‘rganishga asos bo‘ladi. E’tibor berilsa, mamlakatimizda tegishli qonunlar vositasida

boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining qonuniy asoslari belgilab qo‘yilgan. Shu sababli ta’limni boshqaruvchi davlat organlari yoki ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini amalga oshirish huquqiga ega.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, keyingi 5 yil davomida har bir qonun mustaqil ishlovchi huquqga ega bo‘ldi. Misol uchun, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ba’zi bir moddalar boshqa qonunlarga havola qilinad edi. Bundan keyin har bir qonun boshqa qonunga havola qilmasdan, bevosita huquq, burch va manfaatlarni belgilab ko‘rsatadi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Ta’lim kodeksi ishlab chiqilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Chunki kodeks qonunga nisbatan keng qamrovli me’yoriy hujjat hisoblanadi. Eslatib o‘tish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda 15 kodeks amal qilmoqda. Oila, Bojaxona kabi kodekslar shular jumlasidandir. Demak, diagnostikaning qonuniy asosi deganda eng avvalo Konstitutsiya, tegishli qonunlar va kodekslar nazarda tutiladi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini tashkil etishda qonuniylik asosi muhim ahamiyatga ega. Chunki diagnostika butun ta’lim jarayonining mazmuni, holati va samaradorligini o‘rganib, unga huquqiy jihatdan ham baho beradi. Shu sababli bunda diagnostika ishtirokchilarining huquqlariga rioya qilish aynan qonuniylik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Jahon mamlakatlari ta’lim tizimi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda ularda diagnostika jarayoni mamlakat Konstitutsiyasiga asoslanadi. Chunki juda ko‘p xorijiy mamlakatlarda muayyan sohalar bo‘yicha qonunlar qabul qilingan emas. Misol uchun, Amerika Qo‘shma Shtatlarida har bir sohaning qonuniyligini ta’minalash uchun faqat Konstitutsiyaga tayaniladi. Buni shunday tushunish kerak: agar Konstitutsiyada bir yoki bir necha so‘zdan iborat huquqlar belgilangan bo‘lsa, shu huquqlar mutloq qonuniy tusga ega bo‘ladi. Misol uchun, AQSH Konstitutsiyasida ta’lim olish huquqi belgilangan va aynan ana shu modda diagnostika jarayonida ham qonuniy asos sifatida qabul qilinadi. Bunday tajriba qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunik Konstitutsiyaviy asos har qanday

qonunga nisbatan ustuvor turadi. Jahon mamlakatlarida sohalar bo'yicha qonunlarning qabul qilinmasligiga sabab demokratik qadriyatlarni rivojlantirishdir. Chunki qonunlar ikki xususiyatga ega bo'ladi: birinchidan, muayyan huquqlarni beradi; ikkinchidan, muayyan manfaatlarni cheklaydi. Shu sababli jahon mamlakatlarida diagnostika jarayonida demokratik tamoyilini ta'minlash uchun eng avvalo Konstitutsiyaviy qonuniylikka tayaniladi.

Ayni paytda, Rossiya, Yaponiya, Xitoy kabi rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlarda diagnostika jarayonining qonuniyligi ta'lim va ilm-fanga doir qonunlar bilan tartibga solinadi. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimida diagnostika jarayonini amalga oshirish uchun qonuniy asos sifatida "Ta'lim va ilm-fan to'g'risida"gi federal qonunga tayaniladi. Bu mamlakatdagi Respublikalar esa o'zining milliy qonunlariga asoslangan holda diagnostika jarayonini amalga oshiradi. Masalan, Tatariston Respublikasi ta'lim tizimida diagnostik faoliyat "Ilm-fan va innovatsiya to'g'risida"gi respublika qonuniga tayaniladi. Bunday tajriba davlatchilikning federal shaklidagi mamlakatlarda mavjud.

Shuni ta'kidlash lozimki, bizning yondashuvimizga ko'ra, Konstitutsiya va tegishli qonunlar asosida amalga oshiriladigan diagnostika jarayonida demokratik tamoyillarga amal qilishning imkoniyatlari mavjud. Bunda diagnostika ishtirokchilarining huquqlari va manfaatlariq qilinishi demokratik tamoyilga amal qilish hisolanadi. Shuningdek, diagnostika jarayonida jamoaning ishtirok etishi ham demokratik qadriyatlar talablariga javob beradi. Bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun talabalar mamlakatimiz Konstitutsiyasi, asosiy kodekslari va Konstitutsiyaviy qonunlarning mazmunidan xabardor bo'lishi kerak bo'ladi. Bunda "Konstitutsiyaviy qonun" deganda muayyan sohani bevosita Konstitutsiya normalari asosida muayyan sohani tartibga soluvchi qonunlar nazarda tutiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi "Ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni Konstitutsiyaviy qonun

hisoblanadi. Demak, asosiy e'tiborni diagnostika jarayonining eng muhim qonuniy asoslariga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. *Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining me'yoriy-huquqiy asoslari*. Me'yoriy-huquqiy hujjat deganda muayyan bir sohani huquqiy jihatdan tartibga soluvchi rasmiy hujjatlar nazarda tutiladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim diagnostikasining me'yoriy-huquqiy asoslarini davlat ta'lim standartlari, davlat malaka talablari va sohalar bo'yicha belgilangan nizomlar tashkil qiladi. Davlat ta'lim standartlarida shaxsga bilim berish, uni tarbiyalash va kasb-hunarga o'rgatish talablari belgilab qo'yilgan. Diagnostika jarayonida ana shu talablarning ijrosi o'rganiladi. Davlat malaka talablari muayyan mutaxassislik, kasb yoki hunar egasi uchun me'yorlar belgilangan. Ana shunday me'yorlar asosida boshlang'ich ta'lim diagnostikasini amalga oshirish qonuniy kuchga ega bo'ladi. Nizom – bu muayyan sohada faoliyat yuritishning tartibidir. Shu ma'noda mamlakatimizda "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizom amalga kiritilgan. Mazkur Nizomga asosan boshlang'ich ta'limning o'quv, tarbiya va amaliy tadbirdari jarayoni diagnostika qilinadi. Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim diagnostikasining me'yoriy-huquqiy asoslari hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishini taqozo etadi.

Mamlakatimiz davlat ta'lim standartlari va malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan ishlab chiqilganligi bilan eng muhim me'yoriy-huquqiy asoslar sarasiga kiradi. Chunki xalqaro YUNESKO tashkilotining e'tirofiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi dunyodagi eng muhim demokratik Konstitutsiyalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Konstitutsiyamiz g'oyasi "shaxs+jamiyat+davlat" tizimiga aylantirildi va bunga qadar "davlat+jamiyat+shaxs" g'oyasiga asoslanar edi. Shu jihatdan "inson+jamiyat+davlat" g'oyasida demokratik tamoyillar o'z aksini topganligini eslatib o'tish joiz. Demak, diagnostika jarayonida ta'lim ishtiropchilari bo'lgan inson

manfaatlari ilk rejaga qo'yiladi, keyin jamiyat manfaatlari va nihoyat davlat manfaatlari nazarda tutiladi. Aynan bunday yondashuv davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan. Misol uchun, boshlang'ich ta'lim davlat standartlarida dastlab o'quvchilarning bilim, tarbiya va amaliy ko'nikmalarini shakllan-tirishda ularning manfaatlari ustuvor qo'yilgan, keyin boshlang'ich ta'lim jarayoni ishtirokchilarining manfaatlari o'z ifodasini topgan. Shu ma'noda diagnostika jarayoni savolnomasini tuzishda davlat ta'lim standartlariga asoslanish va ularning qoidalaridan kelib chiqish muhim me'yoriy-huquqiy asos hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvvachilarining davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini chuqur o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda davlat ta'lim standartlari o'quv fanlari kesimida o'zlashtirilishi qulay imkoniyatlarni beradi. Chunki juda ko'pchilik talabalar davat ta'lim standartlari va malaka talablarini umumiy o'zlashtirishga harakat qilishi tufayli murakkablikka duch kelishadi. Mamlakatimiz davlat ta'lim standartlari asosida takomillashtirilib borilmoqda. Lekin ularning bosh mazmuni saqlab qolinadi. Kiritiladigan takomillashtirish va o'zgarishlar o'quv fanlari mazmuniga daxldor bo'ladi. Shu sababli diagnostika jarayonini amalga oshirishda hozirgi holatda amalda bo'lgan davlat ta'lim standartlariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, 2023 yil sentyabr oyida muayyan ta'lim muassasasini diagnostika qilish mo'ljallangan va diagnostikaning savolnomasi shu yil avgust oyida ham amalda bo'lgan davlat ta'lim standartlariga tayaniлади. Buning natijasida diagnostika jarayonining me'yoriy-huquqiy asoslari talab darajasida ta'minlanadi.

Davlat ta'lim standartlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi ham mamlakatimiz milliy tajribasiga o'xshaydi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda ham diagnostika jarayoni amalga oshiriladigan holatdagi davlat ta'lim standartlariga tayaniлади.

Bundan ma'lum bo'ladiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvvachilar o'z faoliyati davomida har bir o'quv yili boshlanishida amaldagi davlat ta'lim standartlari bilan tarkoran tanishib chiqishi maqsadga muvofiq

bo'ladi. Bu hol ayniqsa diagnostik faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar uchun muhim imkoniyatlarni beradi.

3. *Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining me'yoriy-tayanch asoslari*. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasining me'yoriy-tayanch asoslari o'quv fanlari dasturlari, rejalari va darsliklaridan iborat. Bunda rejada nazarda tutilgan mavzularning o'quv dasturlarida aks etishi, dasturlardagi mavzular bo'yicha darsliklar mazmunini tayyorlash masalalari diagnostika qilinadi. Shu jihatdan o'quv rejalari mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan tajribali pedagoglar yoki ilmiy xodimlar tomonidan ishlab chiqiladi, o'quv rejalari ta'limni boshqaruvchi yuqori organ tomonidan tasdiqlanadi. Ana shu reja asosida o'quv dasturlari malakali va professional o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilib amalga kiritiladi. Dasturlar asosida tuziladigan darsliklar tajribali o'qituvchilar yoki ularning guruhi tomonidan yaratiladi. Shu sababli diagnostika jarayonida dastlab o'quv rejalari, keyin o'quv dasturlari va nihoyat darsliklar tahlil qilinib o'r ganiladi. Ularning o'zaro muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqariladi. Diagnostika jarayonida darsliklarning mazmuni alohida tahlil etiladi. Unga ko'ra, darsliklarning mavzulari bo'yicha taqdim etilgan matnlar ilmiy ma'lumotlarga boy bo'lishi, ta'lim oluvchi uchun tushunarli va ifodali shakllantirilgan bo'lishi hamda darsliklarning muayyan muddat tajriba-sinovdan o'tgan bo'lishi kerak. Diagnostika jarayonida bularning barchasi o'r ganiladi. Natijada boshlang'ich ta'lim diagnostikasining me'yoriy-tayanch asoslariga binoan ilmiy, xolis va adolatli diagnostik jarayon o'tkaziladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasini tashkil etishning me'yoriy asoslari o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur asoslar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz o'quv fanlarini takomillashtirish jarayonida o'quv rejalari va o'quv dasturlariga mutlaqo yangi yondashuvlar asosida o'zgartirishlar kiritilmoqda. Shu jihatdan ta'lim tizimiga TALIS xalqaro dasturi qoidalari kiritilmoqda.

Bu borada “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini zamonaviy talablar asosida o‘qitish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash va xalqaro dasturlar bo‘yicha ko‘nikmasini tarkib toptirish vazifalari belgilangan. Shu sababli mazkur Strategiyaning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” Davlat dasturida quyida masala alohida ta’kidlangan: “*O‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur*”. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida erkin va kreativ fikrlash, ularni jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim xalqaro ta’lim dasturlaridan biri TALIS keng imkoniyatlarga ega. Mazkur dastur asosida o‘quvchilarining malakasini shakllantirish zaruriyat bo‘lib turibdi. Bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining malakasini takomillashtirish *zaruriyati* masalasi muhim o‘rin tutadi. Unga binoan TALIS xalqaro dasturi qoidalariga binoan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining malakasini quyidagilar tashkil etishini belgilab olish mumkin:

- 1) o‘quvchilarning bilim darajasi;
- 2) o‘quvchilarning qobiliyat darajasi;
- 3) o‘quvchilarning mahorat darajasi;
- 4) o‘quvchilarning ko‘nikma darajasi.

Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining malakasini ana shu darajalar majmui tashkil etadi. Bunda o‘quvchilarning bilim darajasi ularning tushunish, fikrlash va o‘z fikrini ifodalash shakllarida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning qobiliyati esa o‘qishga bo‘lgan qiziqish, ta’lim va tarbiyaga layoqatlik hamda mustaqil harakat shakllari vositasida tarkib topadi. O‘quvchilarning mahorati tarkibini esa bilimni kutilgan darajada o‘zlashtirishi, axloq qoidalariga rioya qilishi va o‘zgalarga nisbatan muloqotga kirishuvchanlikning majmui tashkil qiladi. O‘quvchilarning ko‘nikmasi ijodiy fikrlash, ta’lim va tarbiyaga intiluvchanlik, yangi ishlanmalar yaratish va o‘z bilganlarini mustaqil namoyon qila olish majmuidan iborat. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mazkur tarkiblardan iborat malaka

darajasini shakllantirish boshlang‘ich ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim darajasini tarkib toptirish va takomillashtirishda o‘quv fanlarining chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitilishi, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar vositasida ularning ma’lumotlik darajasini kengaytirib borish orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kutilgan darajada bilimli bo‘lishiga olib keladi.

Pedagogik adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda o‘quvchilarining malakasini takomillashtirish hozirgi zamon innovatsion yondashuvlardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchisining malakasi tarkibini quyidagilarning mujassami tashkil etadi:

- A) bilim malakasi;
- B) fikrlash malakasi;
- V) faoliyat malakasi.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining *bilim malakasi* boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi o‘quv fanlarini o‘qitish vositasida shakllanadi va takomillashadi. Bunda keyingi paytlarda yangi metodika hisoblangan turkumlashtirib o‘qitishga asoslanish kutilgan samarani berishini ta’kidlash joiz. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari quyidagi metodika asosida o‘qitiladi:

- 1) aniq va tabiiy fanlar turkumi (Matematika, Atrofimizdagি olam, Tabiatshunoslik);
- 2) gumanitar fanlar turkumi (Tasviriy san’at, Musiqa madaniyati, Texnologiya, Jismoniy tarbiya va sport, Ona tili va o‘qish savodxonligi).

O‘quv fanlarini bunday turkumlashtirib o‘qitishda asosiy e’tibor fanlar asoslari bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim berishga qaratiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim malakasini takomillashtirishda fanlarni turkumlashtirib o‘qitish metodikasi muhim ahamiyatga ega. TALIS xalqaro dasturi asosida diagnostika jarayoni ana shu masalalarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mazkur xalqaro ta’lim dasturining talablaridan kelib chiqib diagnostika savolnomasini tuzish ham uning takomillashuviga asos bo‘ladi. Chunki ta’kidlanganidek, mazkur xalqaro dasturda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini va o‘qituvchilarining bilish, fikrlash va amaliy ko‘nikma faoliyatini baholab borish asosiy masala hisoblanadi. Diagnostik jarayonda ham ana shu jihatlarni baholash boshlang‘ich talimning samaradorligini yaqqol namoyon etuvchi omillardan biri ekanligi namoyon bo‘ladi. Umuman, diagnostika jarayonida amaldagi xalqaro dasturlar qoidalari va talablarini ham hisobga olish nazariy hamda metodik jihatdan keng imkoniyatlarni beradi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini tashkil etishning me’yoriy asoslari negizini qonunlar, davlat ta’lim standartlari va malaka talablari, o‘quv rejalarini, dasturlari va darsliklar tashkil etishini ta’kidlash lozim. Mazkur asoslar bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:



5-rasm. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining me’yoriy omillari

VI BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM DIAGNOSTIKASINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish va uning vositasida o‘quvchilarning savodxonligi hamda o‘qituvchilarning kompetensiyaviy tajribaviyligini oshirib borish jarayoni kechmoqda. Bu jarayonda o‘quv fanlarini maqbullashtirish, o‘quv adabiyotlarini tajriba-sinovdan o‘tkazish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malaka darajasini kuchaytirish amalgaga oshirilmoqda. Shu sababli mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida ba’zi murakkab masalalarni hal etish taqozo etilmoqda. Murakkabliklarni hal etish, muammolarni oldini olish va boshlang‘ich ta’limni istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda diagnostika jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, har bir o‘quv yilining yakunida boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha diagnostika jarayonini amalgaga oshirish muhim imkoniyatlarni beradi. Shu sababli bu o‘rinda boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining zamonaivy texnologiyalari tahliliga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. Boshlang‘ich ta’limning texnologik imkoniyatlarni o‘rganish.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limining texnologik imkoniyatlari deganda ularning zamonaivy texnik uskunalar, binolar, jihozlar, elektron adabiyotlar va professional o‘qituvchilar bilan ta’milanganlik darajasi nazarda tutiladi. Aynan mana shu masalalar diagnostika qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mamlakatimizning boshlang‘ich ta’lim bosqichi zamonaivy binolar bilan ta’milangan, ayni paytda texnik uskunalar, jihozlar va elektron adabiyotlarni yangilab borish taqozo etiladi. Chunki texnologik rivojlanish sharoitida yangiliklar nisbatan tezkor ravishda ro‘y bermoqda. Misol uchun, bir paytlar proyektor texnik uskunasi asosiy texnologik imkoniyatlardan biri edi, bugungi kunda kompyuter texnikasining eng zamonaivy modellari amaliyatga kiritilmoqda. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonini texnologik jihozlab borish taqozo etilmoqda. Bunda diagnostika jarayonida maktablarning shart-sharoitidan kelib chiqib boshlang‘ich

ta’lim bosqichini texnologik jihozlash tadbirlari ishlab chiqilishi kutilgan samarani beradi. Diagnostika jarayonida boshlang‘ich ta’limning texnologik imkoniyatlari quyi, o’rtalig‘i va yuqori darajalarda baholanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida ana shu darajalarga nisbatan texnologik rivojlantirish tadbirlarini belgilash tarkib topadi. Ayniqsa, eng chekka hududlardagi mакtablarning boshlang‘ich ta’lim bosqichining texnologik imkoniyatlarini diagnostika qilishda individual yondashuv texnologiyasiga tayanish kutilgan samarani beradi. Buning uchun o’ziga xos diagnostika metodikalarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

Umuman boshlang‘ich ta’lim jarayonini diagnostika qilish metodikasi bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish taqozo etilmoqda. Buning uchun oliv pedagogik ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning hamkorligi hamda ularning faoliyati grant asosida moliyalashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim bosqichining texnologik imkoniyatlarini diagnostika qiluvchi asoslarni ham shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada texnologik imkoniyatlarning qanday holati, darajasi va ularni rivojlantirish tadbirlari uyg‘un amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, umuman mакtab umumiy o’rta ta’limini texnologik imkoniyatlarini kengaytirib borish mamlakatni rivojlantirishning tamoallaridan biridir. Chunki ongli, savodli va madaniyatli o‘quvchilar jamiyatning beباho boyligi hisoblanadi. Agar boshlang‘ich ta’lim texnologik imkoniyatlarga ega bo‘lsa, o‘quvchilarni ta’limning keyingi bosqichlariga tayyorlash kuchayadi. Negaki, boshlang‘ich ta’limdan keyin mamlakatimizda umumiy o’rta, ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Bitiruvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mazkur ta’lim muassasalarini tanlash huquqiga ega va bu ta’lim muassasalari bilimli hamda faol o‘quvchilarni tanlab oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimli, faol va ko‘nikmaga ega bo‘lishlarida yuksak darajadagi texnologik imkoniyatlar muhim o‘rin tutadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim

diagnostikasi uning texnologik imkoniyatlarini o‘rganish zamonaviy texnologiyalar tarkibiga kiradi.

Hozirgi zamon jamiyatimizda texnika va inson kashfiyotlariga asoslangan texnologik imkoniyatlar ko‘lami kengayib bormoqda. Bunday tezkor rivojlanish jarayonida texnologik imkoniyatlar kengayadi va yangiliklarning tezkor paydo bo‘layotganligi diagnostik faoliyatga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko‘ra, diagnostika jarayonida maqbul va qulay texnologik imkoniyatlarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday texnologik imkoniyatlar diagnostika jarayoni ishtirokchilari uchun qulaylik, osonlik va maqbullik holatlarini berishi kerak. Umumiyl o‘rtalim maktablari boshlang‘ich ta’limida texnologik imkoniyatlar ko‘lami qanchalik kengayib bormasin, diagnostika jarayoni qat’iy yondashuv asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki amerikalik pedagog-psixolog olim Karl Rodjers ta’kidlaganidek, “texnologik imkoniyatlarning kengligi va ularning yangilanib turishi ba’zida ta’lim jarayonining mazmuniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ta’lim jarayoni mazmuni muqimlashgan tamoyillarga asoslanishi shart”.⁶ Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limning mazmuniga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan texnologiyalar asosida diagnostika jarayonini o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki, diagnostika boshlang‘ich ta’lim mazmunini boyitishga xizmat qilishi kerak.

Mamlakatimiz diagnostika jarayoni nisbatan an'anaviy texnologik imkoniyatlarga asoslanadi. Lekin bu hol yangidan paydo bo‘lgan va pedagoglar tomonidan e’tirof etilgan texnologik imkoniyatlardan foyjalanishni inkor etmaydi. Shu sababli diagnostika jarayonini amalga oshiruvchi ishtirokchilar eng avvalo boshlang‘ich ta’limning texnologik imkoniyatlarini hisobga olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. *Boshlang‘ich ta’limning professionallik darajasini o‘rganish.*
Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limining professionallik darajasi deganda o‘quvchilar bilan individual ishslash, o‘qituvchilarning kasbiy

⁶ Бурхонов А. Психология. – Тошкент, 2021. 135-бет

yetukligi va zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlanganligi nazarda tutiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'limning professionallik darajasini diagnostika qilishda ana shu masalalarga diqqat qilinadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda eng asosiy muammolardan biri o'quvchilar bilan individual ishslashdir. Chunki har bir sinfda o'quvchilar tarkibi eng kamida 35 nafarni tashkil qiladi. Bu hol o'quvchilar bilan individual ishslash jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli mazkur masala diagnostika qilinganligida nisbatan o'quvchilarning savodxonlik darajasiga e'tibor beriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy yetukligi va mazkur ta'lim bosqichining zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlanishi talabga javob beradi. Ayngi paytda, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslari vositasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy yetukligi takomillashtirib borilayotganligini eslatib o'tish joiz. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayoni zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlanishi muntazam nazoratga olinganligini ta'kidlash kerak. Bularning barchasi boshlang'ich ta'limning professionallik darajasini diagnostika qilishda maxsus yondashuvlarga asoslanishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi professionallik nuqtai nazaridan Osiyo qit'asi mamlakatlari ichida yetakchi hisoblanishini eslatib o'tish kerak. Ayni paytda, professionallik darajasini hozirgi zamon ehtiyojlari asosida rivojlantirib borish barchaning, jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining eng muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajaka boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limning professionallik darajasini diagnostika qilish asoslari bilan tanishishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun diagnostikaga doir adabiyotlar bilan mustaqil tanishish tavsiya etiladi. Chunki oliy pedagogik ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari keng imkoniyatlarga ega.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida faoliyat yuritayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nisbatan ko'pchiligi professional malakaga ega. Chunki ular kasbiy faoliyati davomida muntazam ravishda boshlang'ich ta'lim jarayonida bo'layotgan yangiliklar va

uning amaliyotidan xabardor bo‘lib borishadi. Shu sababli diagnostika jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining professionallik darajasi toifalarga bo‘linib baholanishi muhim texnologiyalardan biridir. Misol uchun, 5 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining professionallik darajasi nisbatan maqbul yondashuv asosida diagnostika qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, 10 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarining professionallik darajasi chuqurlashtirilgan tarzda diagnostika qilishini asosli hisoblanadi va oliv toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining professionallik darajasi keng ko‘lamli yondashuv asosida diagnostika qilinishi kutilgan samarani beradi. Bunday diagnostika jarayonida qonuniylik, demokratlik, xolislik va adolatlik tamoyillari namoyon bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining barchasi nazariy-kasbiy bilim jihatidan talabga javob beradi, biroq ular metodik jihatdan farqlanadi. Shu sababli diagnostika jarayonida bu holatning hisobga olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limning professionallik darajasi diagnostika qilinganida mamlakat bo‘yicha yagona yondashuvga amal qilish huquqiy jihatdan asosli hisoblanadi. Chunki mamlakatimiz bo‘yicha boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga va boshlang‘ich ta’lim jarayoniga yagonalashtirilgan hamda tipiklashtirilgan talablar qo‘yilgan. Diagnostika jarayoni ana shu talablardan kelib chiqib tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman boshlang‘ich ta’limning professionallik darajasini diagnostika qilishda maqsadli yondashuv va yagonalashtirilgan metodikaga asoslanish zaruriyat bo‘lib turibdi. Buning uchun diagnostika mazmuni va mohiyatiga nisbatan yangicha nuqtai nazarlarni tarkib toptirish kutilgan samarani beradi. Chunki ta’lim tizimida bo‘layotgan yangiliklar diagnostika jarayoni mazmunini ham yangilashni taqozo etadi.

3. *Boshlang‘ich ta’limni raqamlashtirish darajasini o‘rganish.*
Boshlang‘ich ta’limni raqamlashtirish deganda mazkur ta’lim bosqichining murakkab sharoitlarda mustaqil va masofaviy ta’lim

shakllarini amalga oshirish imkoniyatlari nazarda tutiladi. Mustaqil ta’lim metodikasiga ko‘ra, o‘quvchilar bilim jarayonini erkin o‘zlashtiradi va buning uchun boshlang‘ich ta’limni amalga oshiruvchi mutasaddilar eng muhim yo‘naltirish vazifalarini bajarishi kerak. Masofaviy ta’limda esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini o‘qituvchi tomonidan nazorat qilish imkoniyati mavjud. Shu sababli boshlang‘ich ta’limni raqamlashtirish darajasini diagnostika qilinganida uning mustaqil va masofaviy ta’limni amalga oshirish imkoniyatlari nazarda tutiladi. Diagnostika jarayoni mazkur masalalarni o‘rganishda hududlar kesimi tamoyiliga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki mamlakatimizning hududlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni kechmoqda. Shu sababli boshlang‘ich ta’limning raqamlashtirish darajasini diagnostika qilishda hududlarning imkoniyatlari hisobga olinishi kutilgan samarani beradi. Aslida diagnostika jarayoni umumiy tamoyillarga asoslansa-da, biroq faoliyat jarayonida individual yondashuvlarga tayaniladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim jarayonini raqamlashtirish darjasasi qiyosiy diagnostika qilinishi kutilgan samarani beradi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limning har bir masalasi diagnostika qilinganida maxsus yondashuvlarga tayanish maqsadaga muvofiq bo‘ladi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining zamonaviy texnologiyalarini eng muhim zamonaviy texnologik imkoniyatlari, mazkur ta’lim bosqichining professional darjasasi va uning raqamlashtirish holatini o‘rganish tashkil qiladi. Shu sababli mazkur masalada individual yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakatimiz ta’lim jarayoni standartlashtirilgan texnologiyaga asosan raqamlashtirilmoqda. Unda ta’lim mazmuni, samaradorligi va ta’lim ishtiroychilarining faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni faqat elektron tarzda yuritish asos qilib olingan. Misol uchun, amalga kiritilgan o‘quvchilarning elektron kundaligi ana shunday raqamlashtirishning shakllaridan biridir. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quv darsliklarining elektron shaklga o‘tishi ham amalga oshirilmoqda. Demak, boshlang‘ich ta’limni raqamlashtirish


darajasini diagnostika qilishda ana shu asoslardan kelib chiqib yondashish taqozo etiladi. Bu hol diagnostikaning raqamli shakllarini ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Ko'pchilik pedagog olimlar raqamlashtirishning qulayligini ta'kidlashadi. Chunki unda istalmagan qog'ozbozlikning oldi olinadi, vaqt tejaladi va insonning salbiy ta'sir ko'rsatish omili susayadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lismi raqamlashtirish darajasini diagnostika qilish zaruriyati diagnostika jarayonini o'zini raqamlashtirishni taqozo etadi. Shu sababli bizningcha, diagnostik faoliyatga raqamli texnologiyalarni joriy etishning metodik asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizningcha bunday metodikada quyidagilarning aks etishi muhimdir:

- a) boshlang'ich ta'lismi diagnostika qilishning elektron shaklini belgilab olish;
- b) bunday elektron shaklda diagnostika jarayoni to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni aks ettirish va ulardan foydalanishning ochiqligini ta'minlash;
- v) ta'lim bosqichlarini diagnostika qilishning muddatlari ko'rsatilgan jadvallarini tarkib toptirish;
- g) elektron shaklda amalga oshirilgan diagnostikaning hujjatlarini huquqiy asosga ega sifatida qabul qilinishini belgilab qo'yish.

Mazkur metodika umuman boshlang'ich ta'lismi jarayonini diagnostika qilishda zamonaviylik, innovatsionlik va tezkorlik imkoniyatlarini beradi. Shu jihatdan diagnostik faoliyat to'g'risidagi Nizomlarni yangilash va takomillashtirish, ularda raqamlashtirish texnologiyalarini belgilab qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lismi diagnostikasining zamonaviy texnologiyalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, muntazam ravishda ularni o'r ganib borish taqozo etiladi. Oliy pedagogik ta'lismi jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini diagnostika jarayonining zamonaviy texnologiyalari bilan qurollanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tibor bering:



*6-rasm. Boshlang'ich ta'lism diagnostikasining zamonaviy
texnologiyalari*

VII BOB. OLIY BOSHLANG‘ICH PEDAGOGIK TA’LIM JARAYONI DIAGNOSTIKASI

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayoni ta’lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida muntazam ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Shu jihatdan *oliy pedagogik ta’lim jarayoni diagnostikasi* muammosini o‘rganish ham boshlang‘ich ta’limning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e’tiboringizni tortamiz:

Bugungi kunda mamlakatimizda 3 pedagogika universiteti va 15 pedagogika instituti faoliyat yuritmoqda. Ularning barchasida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ular vositasida oliy ma’lumotli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlanmoqda. Shu jihatdan oliy pedagogik ta’lim jarayoni diagnostikasini amalga oshirish mazkur jarayonning zamonaviy talablar asosida rivojlanib borishini ta’minlaydi. Bu borada mamlakatimizda tadqiqot ishlari endi amalga oshirilmoqda, xorijiy mamlakatlarda esa mazkur masala bo‘yicha muayyan tajribalar to‘plangan. Misol uchun, Germaniya va Rossiya oliy pedagogik ta’lim jarayoni har 5 yilda majmui tarzda diagnostika qilib boriladi.⁷ Shu ma’noda bu o‘rinda oliy pedagogik ta’lim jarayonini diagnostika qilishning eng muhim jihatlariga e’tiboringizni tortamiz.

1. Oliy pedagogik ta’lim o‘quv fanlari diagnostikasi. Hozirgi zamon oliy pedagogik ta’lim jarayonida eng muhim kasbiy (mutaxassislik) fanlari o‘qitilmoqda. Jumladan, 2022-2023 o‘quv yilida Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida quyidagi kasbiy fanlar o‘qitilgan: “Boshlang‘ich ta’limda matematika”, “Matematika o‘qitish metodikasi”, “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi”, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish metodikasi”, “Husnixatga o‘rgatish metodikasi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”,

⁷ Химматалиев Д. Касбий фаолиятга тайёргарликни диагностика килишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси. – Т.: “Ўзбекистон”. 2018. 117-бет.

“Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi”, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integrasiyasi” hamda “Pedagogik mahorat”. Mazkur kasbiy fanlarni diagnostikasi quyidagi tartibda amalga oshirilishi kutilgan samrani beradi:

- a) o‘quv fanlarini turkumlashtirib o‘qitishni o‘rganish;
- b) o‘quv fanlarining mavzulari va matnlarini o‘rganish;
- v) o‘quv fanlarining kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi mazmunini o‘rganish.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini turkumlashtirib o‘qitish masalasini o‘rganish va bahorlash muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quv fanlari turkumlashtirib o‘qitilganida ularning o‘zaro bog‘liqligi natijasida ta’lim mazmuni chuqurlashadi. Shu jihatdan mazkur masalani diagnostika qilishda o‘quv fanlarini turkumlashtirib o‘qitishning mantiqiy, mazmuniy va metodik jihatlariga e’tibor qaratiladi. Agar o‘quv fanlari ana shu tamoyillar asosida turkumlashtirib o‘qitsa, ular bir-birini to‘ldirgan holda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilimini kengaytiradi. Mana shu sababli diagnostika muntazam ravishda amalga oshirilib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘quv fanlari mavzulari va matnlarini diagnostika qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda eng muhim mavzularning tanlanganligi, matnlarning mavzularni ochib berishi va talabalarni yo‘naltiruvchanligi jihatlariga diqqat qilinadi. Agar mavzular o‘zaro bog‘liqlikda va dolzarblik tamoyillari asosida tanlangan bo‘lsa, matnlar ham shunday tartibda tuzilishi kerak. Aynan mana shu masala keyingi paytlarda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu borada xorijiy mamlakatlar bir necha yillar mobaynida tajriba o‘tkazib kelgan va natijada mazkur masalani har 5 yilda majmui tarzda diagnostika qilish xulosasiga kelingan. Chunki diagnostika jarayonida mavzularni takomillashtirish va matnlarni zamonaviy hamda yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Buning natijasida o‘quv fanlarining mazmun va metodik jihatdan takomillashib borishiga erishiladi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitilayotgan kasbiy o‘quv fanlarining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rganish va baholash diagnostik jarayonning eng muhim vazifasidir. Chunki diagnostika asosida o‘quv fanlarining mazmuni kasbiy kompetensiyani shakllantirishda qanday o‘rin tutishi, ularning birlamchilik darajasi va dolzarbliги kabi masalalarga e’tibor qaratiladi. Kasbiy o‘quv fanlarining mazmuni hozirgi zamon talablari asosida boyitib borilishi taqozo etiladi. Negaki keyingi paytlarda tadqiqotlar va yangi texnologiyalarning kuchay-ganligi sababli o‘quv fanlari mazmuni bo‘yicha keng ma’lumotlar majmui tarkib topib bormoqda. Ana shunday ma’lumotlarning eng muhimlari o‘quv fanlari mazmuniga singdirilsa, ularning kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati ortadi. Bularning barchasi tadqiqiy shaklda o‘rganilib, diagnostika qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini diagnostika qilib borish ularning takomillashib borishiga xizmat qiladi.

2. Pedagogik amaliyat samaradorligi diagnostikasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-sod “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan oliy pedagogik ta’lim jarayoni nazariya va amaliyat uyg‘unligi tamoyili asosida amalga oshirilmoqda. Unga ko‘ra, talabalar haftaning ikki kunida pedagogik amaliyotda va o‘quv yili davomida bitiruv amaliyotida bo‘lishadi. Bunda haftalik pedagogik amaliyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonidagi pedagogik amaliyat samaradorligi diagnostika qilib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi va bunday diagnostika har bir o‘quv yili davomida amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi. Bunday diagnostika jarayonida quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) pedagogik amaliyotning tashkiliy samaradorligini o‘rganish;

b) pedagogik amaliyotning talabalar kasbiy kompetensiyasini shakllanishidagi samaradorligini o‘rganish; m

v) pedagogik amaliyotning me’yoriy asoslарини o‘rganish.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonining pedagogik amaliyoti tashkiliy samaradorligini o‘rganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagogik amaliyot tashkiliy jihatdan talab darajasida tashkil qilingan bo‘lsa, unda talabalarning faolligi nazarda tutilgan bo‘lsa va talabalarning vaqt omilidan oqilona foydalanishi e’tiborga olingan bo‘lsa, uning amaliy ahamiyati ortadi. Diagnostika jarayonida ana shu masalalar o‘rganilib baholanadi. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining amaliyotdagi faoliyatni, ularning biriktirilgan professor-o‘qituvchilar va amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan hamkorligiga asosiy e’tibor qaratiladi. Buning natijasida oliy pedagogik ta’lim muassasasi va umumiy o‘rta ta’lim muassasasining pedagogik amaliyotni tashkil qilishdagi vazifalari tahlil etiladi. Natijada pedagogik amaliyotning tashkiliy samaradorligi to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘linadi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonining pedagogik amaliyoti talabalar kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu sababli bunda pedagogik amaliyotning talabalar faoliyatiga ijobjiy ta’siri, uning mazmuni va talabalarning faolligi masalalari o‘rganilib baholanadi. Pedagogik amaliyotning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyasini amaliy jihatdan shakllantirilishiga asosiy e’tibor qaratiladi. Chunki pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mustaqil ravishda dars mashg‘ulotlari o‘tishadi, o‘qituvchilarining tajribalarini o‘zlashtiradi va o‘zlarining nazariy bilimlarini tajriba-sinovdan o‘tkazadi. Shu sababli mazkur masalalar diagnostik jarayon vositasida o‘rganilib, ularni yanada takomillashtirish tavsiyalari ishlab chiqiladi. Natijada pedagogik amaliyotning talabalar kasbiy kompetensiyasida tutgan ahamiyati ortib boradi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonining pedagogik amaliyot me’yoriy asoslari ham diagnostika qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda

eng muhim ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilinayotganligi, pedagogik amaliyot bo'yicha tashkiliy o'quv adabiyotlarining mavjudligi va pedagogik amaliyotning shart-sharoitlari o'rganilib baholanadi. Bunday o'rganish jarayonida pedagogik amaliyotning me'yoriy hujjatlarga asoslanishi va ular vositasida kasbiy samaradorlikka erishish mumkinligi masalalariga e'tibor qaratiladi. Shu sababli pedagogik amaliyotning me'yoriy asoslarini muntazam o'rganib baholab borish amaliy jihatdan muhim tadbirlar ko'lamiga kiradi.

Diqqat qilinsa, oliv pedagogik ta'lif jarayonining pedagogik amaliyot samaradorligi diagnostikasi mazkur jarayonni rivojlantirishning eng muhim mexanizmlaridan biridir. Shu sababli bu borada talabalar va professor-o'qituvchilarining malakaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Professor-o'qituvchilar faoliyati diagnostikasi. Oliy pedagogik ta'lif jarayonida bugungi kunda professional professor-o'qituvchilar tarkibi faoliyat yuritmoqda. Mazkur professor-o'qituvchilarining faoliyati o'quv yili davomida diagnostika qilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday diagnostika jarayonida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi:

- a) professor-o'qituvchilarining kasbiy faolligini o'rganish;
- b) professor-o'qituvchilarining ijtimoiy faolligini o'rganish;
- v) professor-o'qituvchilarining faoliyat samaradorligini o'rganish.

Professor-o'qituvchilarining kasbiy faolligini o'rganish va baholashda ularning funksional vazifalariga e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda professor-o'qituvchilarining o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyati muhim vazifalar sifatida belgilangan. Ularning o'quv faoliyati o'rganilganida kasbiy tayyorgarligi, ta'limiyligi va uslubiy faoliyatiga e'tibor qaratiladi. Professor-o'qituvchilarining ilmiy faoliyati o'rganilganida esa ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishi va ularning natijalarini nashr shaklida ommalashtirib borilishiga diqqat qilinadi. Professor-o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini o'rganishda tarbiyaviy faoliyati, ustoz-shorигд an'anasi va talabalar

bilan individual yondashuv asosida ishlashi masalalari o‘rganilib baholanadi. Buning natijasida professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘linadi va ana shu ma’lumotlar tahlili asosida diagnostika jarayoni amalga oshiriladi. Natijada professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirish va faollashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘linadi.


Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish bosqichi oliy pedagogik ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ijtimoiy faoliyatini o‘rganish va baholab borishni taqozo etadi. Chunki mamlakatimizda professional o‘qituvchilar jamiyatimizning eng faol kasb egalari sifatida e’tirof etilgan. Agar professor-o‘qituvchilar ijtimoiy faol, tashabbuskor va jamiyat islohotlarida samarali faoliyat ko‘rsatish malakasiga ega bo‘lsa, talabalarda ham xuddi shunday ko‘nikmalar tarkib topadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun professor-o‘qituvchilarning ijtimoiy faoliyati namuna vazifasini o‘taydi. Shu sababli mazkur jarayon har bir o‘quv yilida diagnostika qilib borilishi professor-o‘qituvchilarning ijtimoiy faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Negaki, ziyoli qatlam sifatida professor-o‘qituvchilar ijtimoiy faoliyat bo‘yicha jamiyatda ibratli shaxslar bo‘lishi taqozo etiladi. Ijtimoiy faoliyat nafaqat oliy pedagogik ta’lim muassasasi uchun, balki butun jamiyat uchun rivojlantiruvchi omil hisoblanadi.

Bugungi kunda professor-o‘qituvchilarning faoliyat samaradorligiga erishishi muhim ahamiyatga ega. Butun o‘quv yili davomida faollikda bo‘lgan professor-o‘qituvchi o‘zining faoliyat samaradorligiga erishishi kerak. Bunda o‘quv-uslubiy, ilmiy va tarbiyaviy faoliyat samaradorligiga erishish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bu jarayon diagnostika qilinib baholanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki diagnostika natijasida professor-o‘qituvchilarning faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir qiluvchi muammolar va omillar o‘rganilib, ularni bartaraf etish tadbirlari tavsiyaviy xarakterda ishlab chiqiladi. Xorijiy mamlakatlarning, jumladan, Germaniyaning tajribasiga ko‘ra, professor-o‘qituvchilarning faoliyat samaradorligi

oliy pedagogik ta’lim jarayonining eng muhim rivojlantiruvchi omili sifatida qaraladi. Shu ma’noda professor-o’qituvchilarning faoliyat samaradorligi muntazam o’rganilib borilishi amaliy jihatdan maqsadga muvofiq bo’ladi.

Diqqat qilinsa, professor-o’qituvchilarning faoliyati diagnostikasi juda ko‘p imkoniyatlarni beruvchi mexanizmlardan biridir. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida tashkiliy ishlarni amalgaloshirish taqozo etiladi.

Shunday qilib oliy pedagogik ta’lim jarayoni diagnostikasi unda o‘qitilayotgan o’quv fanlarini o’rganish, pedagogik amaliyot samaradorligini baholash va professor-o’qituvchilarning faoliyati diagnostikasi mexanizmlariga asoslanadi. Mazkur masalalar bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o’qituvchilarining malakaga ega bo‘lishi kutilgan samarani beradi. E’tibor bering:



7-rasm. *Oliy boshlang‘ich pedagogik ta’lim jarayoni diagnostikasi asoslari*

VIII BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASI DIAGNOSTIKASI

Hozirgi zamon mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim jarayoni professional boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘ziga xos tajribaga ega. Chunki bu borada o‘ziga xos milliy tajribalar to‘plangan bo‘lib, bugungi kunda mazkur tajribalar xalqaro ta’lim dasturlari asosida diagnostika qilib borilmoqda. Bundan maqsad professional boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tajribasini keng miqyosda ommalashtirish va xorijiy mamlakatlarning mazkur masalalar bo‘yicha an‘analarini o‘rganishdir. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, mamlakatimiz professional boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha Osiyo mamlakatlari ichida yetakchi hisoblanadi, biroq mazkur tajriba keng targ‘ibot qilinmaganligi uchun uni ommalashtirish murakkab kechmoqda. Shu sababli diagnostik yondashuv asosida bizning fikrimizcha, mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan professional boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorgarlik ko‘lamini rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan mazkur masalalarning tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining professional tayyorgarligi diagnostikasi. Jamiyatimizda faoliyat yuritayotgan davlat pedagogika universitetlari va institutlarining professional boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini muntazam o‘rganib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda kezi bilan, nodavlat xususiy sheriklik shaklidagi oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining professional tayyorgarlik darajasini ham diagnostika qilish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu jihatdan quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilim darajalarini o‘rganish va baholash;

b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini o'rganish va baholash;

v) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasini o'rganish va baholash.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oliy pedagogik ta'lif jarayonida professional darajasini diagnostika qilishda ularning kasbiy bilimga egaligi o'rganiladi. Bunda kasbiy bilim milliy va xorijiy ilmiy ma'lumotlarga boyligi, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirganligi va ularning qiziquvchanligini oshirganlik darajalariga asosiy e'tibor qaratiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy bilimlarni egallashi bugungi kunda qoniqarli darajada bo'lib, bu jarayon yanada chuqurlashtirilishi va ma'lumotlarning yangilanib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki kasbiy bilimlar ko'lami, mazmuni va nazariy asoslari muntazam ravishda yangilanib bormoqda, turli yondashuvlar tarkib topmoqda. Shu sababli diagnostika jarayoni talabalarning kasbiy bilimi darajasini xolis baholashi va uni rivojlantirish asoslarini ishlab chiqishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarga egaligini diagnostika qilish ularning kasbiy tayyorgarligini o'rganishning muhim omillaridan biridir. Chunki pedagogik kompetensiyalar o'qituvchining imidjini, faoliyat asoslarini va jamiyatdagi mavqeini belgilovchi ko'nikmalar majmuidir. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik kompetensiya darajalarini o'rganish, undagi yutuqlarni baholash va ommalashtirish, pedagogik kompetensiyalarni o'zlashtirishda murakkablikka duch kelayotgan talabalar bilan individual yondashuv asosida ishlash tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur tadbirlarni diagnostik yondashuvlar asosida amalga oshirish va pedagogik kompetensiyalar ko'lami hamda miqdorini nazariy-metodik jihatdan belgilab qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professional tayyorgarligini diagnostika qilishda ularning faoliyat tayyorgarligi masalasini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki talabalar

amaliy faoliyatga tayyorlanishda oliy pedagogik ta’lim jarayonidagi amaliy mashg’ulotlar va haftalik pedagogik amaliyat imkoniyatlariga tayanishadi. Bugungi kunda mazkur amaliy mexanizmlarni uyg‘unlashtirish va ular asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini amaliy faoliyatga hamkorlikda tayyorlash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalalani diagnostika jarayoni o‘rganishi, baholashi va ta’kidlangan metodikani ishlab chiqishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, o‘quv fanlarining amaliy mashg’ulotlari mazmun jihatidan haftalik pedagogik amaliyotning mazmuni bilan uyg‘unlashtirilishi kerak bo‘ladi. Shu sababli mazkur jarayonni xolis va samarali ravishda amalga oshirish diagnostik yondashuv asosida hal qilinishi kutilgan samaranı beradi.

2. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodga egaligi diagnostikasi. Jamiyatimizning hozirgi zamon innovatsion rivojlanish sharoiti har bir sohada individual yondashuv va metodlarga ega bo‘lishini taqozo etmoqda. Shu jihatdan individual metodga ega bo‘lish hozirgi zamon boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi negizlaridan biri va jamiyatimizning ehtiyoji asoslaridan hisoblanadi. Mazkur masalar bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodga ega bo‘lishini ta’minalash eng muhim vazifalardan biridir. Shu sababli bu masalani hal etishda diagnostika jarayonining imkoniyatlaridan foydalanish bizning yondashuvimizga ko‘ra, nazariy va metodik jihatdan asosli hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida, ayniqsa, bitiruvchi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodga egaligini o‘rganish va baholash muhim ahamiyatga egadir. Bu diagnostik jarayonda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z uslubiga egaligini o‘rganish va baholash;
- b) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mustaqil faoliyat ko‘nikmasiga egaligini o‘rganish va baholash;

v) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik jihatdan o'zi ustida ishlashini o'rganish va baholash.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z usullarini, ya'ni o'qitish, tarbiyalash va yo'naltirish uslublarini aynan oliy pedagogik ta'lim jarayonida nazariy va metodik jihatdan o'zlashtiradi. Bunda o'quv fanlarini nazariy ma'lumotlari, amaliy mashg'ulotlarning tadbirdi va haftalik pedagogik amaliyotning mexanizmlari muhim o'rinni tutadi. Shu jihatdan mazkur jarayonni diagnostika qilishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z uslublariga ega bo'lishini ta'minlovchi nazariy, amaliy va metodik mexanizmlar uyg'un o'rganiladi. Natijada talabalarda tarkib topgan individual uslublar to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'linadi va buning natijasida ularning uslublarga egaligi yoki ega emasligi baholanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil faoliyat ko'nikmasini o'rganish ham ularning individual metodga egaligini namoyon qiluvchi masalalar tarkibiga kiradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogik ta'lim jarayonining 4+2 tizimida tashkil etilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil faoliyat ko'nikmasining tarkib topishida muhim omil bo'lmoqda. Shu ma'noda mazkur tizimda o'quv jarayoni va pedagogik amaliyotning o'zar hamkorlik mexanizmi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil faoliyat ko'nikmasini kutilgan darajada tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun diagnostika jarayoni amalga oshirilib, unda talabalarning mustaqil faoliyat ko'nikmasi o'rganiladi hamda ularni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida individual metodga ega bo'lishning eng muhirm mexanizmlaridan biri bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muntazam ravishda o'zi ustida ishlab borishidir. Buning uchun talabalar eng zaruriy ma'lumotlarni topish va o'zlashtirish, tegishli o'quv adabiyotlari bilan ishslash hamda o'zlashtirganlarini namoyon qila olish vositalariga ega bo'lishi kerak. Diagnostika jarayonida ana shu masalalar o'rganilib har bir talabaning

o‘zi ustida ishlashi bo‘yicha individual yondashuvi aniqlanadi. Kuza-tishlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘zi ustida ishslash ko‘nikmasiga ega, biroq ular metodologik yordamga ehtiyoj sezadi. Shu sababli bu metodologik yordam mexanizmlari diagnostika natijasida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim muhitini diagnostikasi. Mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘ziga xos ta’limiy, tarbiyaviy va metodik muhit yaratilganligini ta’kidlash lozim. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun yaratilgan muhitni o‘rganish va baholashda quyidagilarga e’tibor berish diagnostik tamoyil jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi:

- a) ta’limiy va tarbiyaviy muhitni yaratishda imkoniyatlarga tayanilganlik;
- b) axborot-resurs va metodjik-ma’lumot ta’minotining mavjudligi;
- v) ta’lim beruvchilarning pedagogik tajribalarga egaligi.

Mazkur yondashuv oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun yaratilgan muhitni o‘rganish va baholashning muhim mexanizmlaridan hisoblanadi. Shu jihatdan ta’limiy va tarbiyaviy muhitni yaratishda oliy pedagogik ta’lim muassasasining imkoniyatlari, jihozlanishi va kadrlar ta’minati diagnostika qilinadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’limiy va tarbiyaviy muhit texnik va texnologik talablarga mos tashkil etilgan. Ayni paytda bunda asosiy masalar ularning amaliy samara berishidir. Shu ma’noda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limiy va tarbiyaviy muhitdan qanday foydalanishi, ular uchun bu muhitning qulayligi va samaradorlik darajasi diagnostika qilinadi. Buning natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini tarkib toptirishda ta’limiy va tarbiyaviy muhitning qanday o‘rin tutayotganligi xolis baholanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun tashkil etilgan ta’lim va tarbiyaviy muhitning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri bu axborot-resurs va metodik ta’minotdir. Bunda diagnostika jarayonida

axborot-resurs markazlari imkoniyatlari, ularning zamonaviy adabiyotlar bilan ta'minlanganligi va mavjud o'quv-texnik jihozlarning zamonaviyligi masalalari o'rganiladi va baholanadi. Chunki aynan mana shu mexanizmlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituchilarining kasbiy kolmpetensiyasini zamon talablari asosida tarkib toptirishda muhim o'rinn tutadi. Diagnostika jarayonida bularning barchasi tahvilay ma'lumotnomasi asosida shakllantirilib tashkiliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari diagnostikasida oliy pedagogik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining pedagogik tajribalarini o'rganish ham muhim o'rinn tutadi. Shu sababli mazkur oliy ta'lim ishtirokchilarining pedagogik tajribalarini diagnostika qilishda ularning ilmiy unvonlari va darajalarga egaligi, ilmiy maktablarning tarkib topganligi, o'quv fanlari bo'yicha individual texnologiyalarning mavjudligi, milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy-metodik ishtiroki o'rganiladi va baholanadi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini tarkib topishida ta'sir ko'rsatuvchi oliy ta'lim beruvchilarining pedagogik tajribalari baholanib, ularning eng ilg'or an'analari targ'ibot qilinadi.

E'tibor berilsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi diagnostikasi muhim nazariy, metodik va amaliy xususiyatlarga ega. Bunda asosiy e'tibor ta'kidlangan mexanizmlarga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi diagnostika negizini talabalarning professional tayyorgarlik darajasi, ularning individual metodga egaligi va oliy ta'lim muhitining zamonaviyligini o'rganish hamda baholash tashkil qiladi. Buning uchun diagnostika jarayonini mexanizmlarni kuchaytiruvchi omil sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. E'tibor bering:

Bo'lajak boshlang'ich sinf
o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi
diagnostikasi

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professional tayyorgarligi diagnostikasi

2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodga egaligi diagnostikasi

3. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim muhitini diagnostikasi

Bo'lajak boshlang'ich sinf
o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi
diagnostikasi natijalari

8-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi diagnostikasi negizlari

IX BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM DIAGNOSTIKASI BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi bo‘yicha dunyoviy o‘ziga xos xorijiy tajribalar mavjud. Bunday tajribalar ikki xususiyatga ko‘ra tarkib topgan: birinchidan, har bir davlat o‘zining sharoitlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib boshlang‘ich ta’lim jarayonini diagnostika qiladi; ikkinchidan, har bir davlatning boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillar aks etadi. Shu sababli xorijiy tajribalarni o‘rganish boshlang‘ich ta’limning milliy diagnostikasi bo‘yicha yangi imkoniyatlarni beradi. Bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi bo‘yicha xorijiy tajribalarning umumiyligini xususiyatlari tahliliga tortamiz.

1. Yevropa mamlakatlari boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi tajribasi. Hozirgi zamon Yervopa qit’asida taraqqiyotning ikki tendensiyasiga asoslangan mamlakatlar mavjud. Birinchi tendensiyada bozor iqtisodiyoti tamoyillari amal qiladi va bunday tamoyilga Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsariya, Shvetsiya, Daniya va Belgiya amal qiladi. Natijada ularning boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida ham o‘ziga xos yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuvlarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- a) har bir o‘quvchining individual o‘zlashtirishini diagnostika qilish;
- b) har bir o‘qituvchining individual uslubini diagnostika qilish;
- v) har bir maktabning individual muhitini diagnostika qilish.⁸

Har bir o‘quvchining individual o‘zlashtirishi va faoliyatini diagnostika qilishda ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligiga e’tibor beriladi. Bunda o‘quvchilar boshlang‘ich ta’limdan keyingi turli ta’lim muassasalarida o‘qishlari hisobga olinadi. Har bir o‘qituvchining individual uslubini diagnostika qilishda ularning faoliyat samaradorligi hisobga olinadi. Unga ko‘ra, har bir o‘qituvchi o‘zining individual o‘qitish va faoliyat uslubiga ega bo‘lishi shart. Shunda boshlang‘ich

⁸ Бордовская Н., Реан А. Педагогика. - СПб. 2001

ta’limning samaradorligi kuchayadi, deb hisoblanadi. Shuningdek, har bir mактабнинг individual muhiti diagnostika qилинади. Bunda mактабдаги o‘ziga xos yondashuvlar, shart-sharoitlar va imkoniyatlar o‘рганиліб, ularning o‘quvchilar va o‘qituvchilar faoliyatiga ta’siri baholanadi. Buning natijasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich ta’lim bosqichining holati va uni rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘linadi.

Yevropa qитасининг ikkinchi tendensiyasi rejalashtirilgan iqtisodiyotga asoslanadi va bu tendensiyaga Bolgariya, Venegriya, Slovakiya, Chexiya va Ispaniya mamlakatlari amal qiladi. Shu sababli mazkur mamlakatlarning boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida quyidagi xususiyatlar mavjud:

- a) o‘quvchilar guruhini diagnostika qilish;
- b) o‘qituvchilar guruhini diagnostika qilish;
- v) maktablar guruhini diagnostika qilish.

O‘quvchilar guruhini diagnostika qilishda aniq, tabiiy va gumanitar fanlarni o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar toifasiga asoslaniladi. Bunda fanlar turkumlarini o‘zlashtirish bo‘yicha guruhga umumiy baho beriladi va ularning yutuq va kamchiliklari ko‘rsatiladi. O‘qituvchilar guruhini diagnostika qilishda ularni toifalar bo‘yicha o‘рганилади. Bunda eng oliv toifa o‘qituvchilarining yetakchilik faoliyati, o‘rta toifa o‘qituvchilarining ijrochilik faoliyati va quyi toifa o‘qituvchilarining tajribalarini o‘zlashtirish faoliyati baholanadi. Buning natijasida o‘qituvchilar guruhlarining holati, daraja va ularning ko‘rsatkichlari muayyan mezonlar asosida diagnostika qilinadi. Maktablar guruhi – bu eng chekka hududlardagi maktablar, megapolis shaharlardagi maktablar va poytaxtdagi maktablar toifasidan iborat. Eng chekka hududlardagi maktablar guruhi shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o‘рганилади, megapolis shaharlardagi maktablar guruhi ta’lim oluvchilarining bilim darajasi nuqtai nazaridan baholanadi va poytaxtdagi maktablar guruhi o‘quvchilarining amaliy faoliyatga tayyorlarligi bo‘yicha diagnostika qilinadi. Bunday yondashuv rejali iqtisodiyotga asoslangan Yevropa mamlakatlarda boshlang‘ich

ta'limning majburiyigini anglatadi va keyingi ta'lim bosqichlari ixtiyoriy ta'lim turi sifatida qaraladi.

Umuman Yevropa qit'asidagi boshlang'ich ta'lim diagnostikasi bo'yicha tajribalarni o'rganish va ularning yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

2. Osiyo mamlakatlari boshlang'ich ta'limi diagnostikasi. Osiyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish jarayonida bo'lganligi uchun ta'lim tizimida ham o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ayni paytda, Osiyo mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim majburiy ta'lim turi sifatida belgilab qo'yilgan. Bu borada O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya, Indoneziya, Avstraliya kabi mamlakatlar yetakchi hisoblanadi. Mazkur mamlakatlarning boshlang'ich ta'lim diagnostikasida quyidagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi:

- a) o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasini baholash;
- b) o'qituvchilarning faoliydarajasini baholash;
- v) boshlang'ich ta'lim muhitini baholash.

Ta'kidlash lozimki, Osiyo mamlakatlarda o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasi dunyo ta'lim tizimida yetakchi hisoblanadi. Bunda boshlang'ich ta'limning majburiyligi muhim o'rinn tutadi va o'quvchilarning savodxonlik darajasi hozirgi zamon texnologik talablari asosida rivojlanib borayotganligi 2021 yili YUNESKO tomonidan e'tirof etilgan. Shu sababli o'quvchilarning savodxonlik darajasini rivojlantirish va savodxonlik ko'lamini kengaytirish amaliy tadbirlarni amalga oshirish tavsiyalari mazkur xalqaro tashkilot tomonidan taqdim etilgan. Osiyo mamlakatlarda o'qituvchilarning faoliydarasi ham baholanadi va bunda asosiy e'tibor kasbiy samaradorlikka qaratiladi. Kasbiy samaradorlik deganda mashhur pedagoglarning tajribalarini o'zlashtirish va o'zining xususiy uslublariga ega bo'lish tushuniladi. Shu sababli diagnostika jarayonida o'qituvchilarning faoliydarasi hisobga olinib, o'quvchilarning savodxonlik darajasiga qiyosiy baholanadi. Osiyo mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim muhiti alohida o'rganiladi. Bunda mavjud sharoitlardan tortib, sinflarning jihozlanishigacha e'tibor qaratiladi.

Misol uchun, Indoneziya mamlakatida maxsus kemalarda boshlang‘ich sinf xonalari tashkil etilgan bo‘lib, ular yil davomida eng chekka hududlardagi o‘quvchilarning savodxonligini oshirish uchun faoliyat yuritadi. Mazkur tajriba Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Afrika qit’asi mamlakatlariga namuna sifatida tavsiya etilgan va bugungi kunda ushbu qit’ a mamlakatlarida maxsus avtobuslarda boshlang‘ich sinflari yil davomida faoliyat yuritadi. Buning natijasida Osiyo qit’asi mamlakatlarida o‘quvchilarни boshlang‘ich ta’lim bilan qamrab olish darajasi rivojlanib bormoqda. Diagnostika jarayonida aynan ana shu masalalarining samaradorligi o‘rganilib, ilmiy va amaliy baholanadi. Shu sababli keyingi paytlarda ta’lim bo‘yicha “Osiyo tajribasi” tendensiysi yuzaga kelganligini eslatib o‘tish joiz.

3. Amerika qit’asi mamlakatlari boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi. Mazkur qit’ a mamlakatlari ko‘p hollarda boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha individual xususiyatlarga ega. AQSHda boshlang‘ich ta’lim nisbatan xususiy maktablarda amalga oshiriladi va bu hol diagnostikaning umumiylig tamoyiliga asoslanishini taqozo etadi. Kanada mamlakatida ham boshlang‘ich ta’lim aynan AQSH tizimiga mos. Meksika, Braziliya, Panama kabi mamlakatlarda boshlang‘ich ta’lim davlat umumta’lim maktablarida amalga oshiriladi. Biroq, AQSH va Kanadadan tashqari Amerika qit’asi mamlakatlarida o‘quvchilarни boshlang‘ich ta’lim bilan qamrab olish darajasi murakkabligicha qolayotganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Chunki bu mamlakatlarda aholi migratsiya sharoitida yashaydi. Ayni paytda, Amerika qit’asi mamlakatlarida boshlang‘ich ta’lim jarayonini diagnostika qilish umumiyl tamoyillarga asoslanadi. Bunday tamoyilarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- a) o‘quvchilarning milliy xarakterga egaligini baholash;
- b) o‘qituvchilarning umummilly faoliyatga egalik darajasini baholash;
- v) maktablarning umumiyl sharoitlarga egaligini baholash.


Amerika qit’asi mamlakatlarida o‘quvchilarning milliy xarakterga ega bo‘lishi ustuvor hisoblanadi. Chunki bu qit’ a mamlakatlari milliy

iqtisodiyotni ta'sis etish taraqqiyot tendensiyasiga asoslanadi. Unga ko'ra, har bir davlat o'zining milliy mahsulotiga ega bo'lishi kerak. Bu iqtisodiy yondashuv boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning milliy xarakterda tarbiyalanishiga asos sifatida qabul qilingan. Shu sababli mazkur mamlakatlarning teatr, kino kabi san'atlarida ham milliylikka urg'u beriladi. Shunisi tajribadan o'tganki, milliy xarakter egasi bo'lgan o'qituvchi o'zini umuminsoniy taqdir uchun mas'ul his qiladi, ya'ni milliy xarakterga ega bo'lish shaxsdan milliy xudbinlikni keltirib chiqarmaydi. Shu sababli bu masala diagnostikaning eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu qit'a o'qituvchilarining umummilliylar faoliyati har qanday shaxsga, har qanday sharoitda bilim va tarbiya berish bilan belgilanadi. Bunda shaxsning millati, irqi, jinsi va iqtisodiy holati hisobga olinmaydi. Shu sababli o'qituvchilarining umummilliylar faoliyati diagnostik o'rganilganligida ana shu jihatlariga e'tibor beriladi. Misol uchun, amerikalik boshlang'ich sinf o'qituvchisi Afrika qit'asidagi nochor mamlakat bolalarini bepul o'qitishi uning yuksak darajadagi umummilliylar faoliyatga egaligi sifatida beaholanadi. Shu sababli Amerika qit'asi mamlakatlari o'qituvchilarini butun dunyo mamlakatlarda o'quvchilarning ta'limi bilan shug'ullanishga harakat qiladi va bunday tajriba boshqa qit'a mamlakatlari uchun namuna sifatida qabul qilingan. Ushbu qit'a mamlakatlari maktablarining umumiylar sharoitlari muntazam o'rganib boriladi. Bunda maktablarda jihozlarning mavjudligi, o'quv adabiyotlarining yetarliligi va professional o'qituvchilar bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganiladi. Umumiylar sharoit o'quvchilarning boshlang'ich ta'lim olishi uchun imkon beruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Shu sababli o'quv yili davomida mazkur jarayon bir necha bor diagnostika qilinadi va diagnostika jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchilarning fikrlari birlamchi tadbir sifatida qabul qilinadi. Buning natijasida ushbu qit'a mamlakatlari maktablarining boshlang'ich ta'lim sharoiti muntazam ravishda yangilanib borayotganligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasi bo'yicha xorijiy tajribalar rang-barang bo'lib, ularning yutuqlaridan o'rganish

mumkinligini ko'rsatadi. Har bir mamlakatda amalga oshirilayotgan boshlang'ich ta'lismi va uning samaradorligi o'rganilganligida muhim tajribalarga duch kelinadi. Bu borada diagnostika jarayoni ham boshlang'ich ta'lismi rivojlantruvchi omillardan biri ekanligi namoyon bo'ladi.

Shunday qilib diagnostikasi bo'yicha xorijiy tajribalarni oliv pedagogik ta'lismi jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan individual o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Individual o'zlashtirishda talaba erkin faoliyat yuritadi va uning o'zlashtiriganlari ko'nikma sifatida tarkib topib boradi. Chunki talaba o'zi qiziqqan mamlakatning boshlang'ich ta'lismi bo'yicha diagnostikasini qiziqish bilan o'rganadi. E'tibor bering:



9-rasm. Boshlang'ich ta'lismi diagnostikasi bo'yicha xorijiy tajribalarini omillari

X BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM DIAGNOSTIKASIDA KLASTER TIZIMI

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida o‘ziga xos yondashuvlar mavjud. Chunki bunday yondashuvlarning rang-barangligi diagnostik jarayonning demokratik xususiyatga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, agar diagnostika jarayoni demokratik qadriyatlар asosida o‘tkazilsa, uning qonuniyligi va xolisligi kutilgan darajada tarkib topadi. Shu jihatdan diagnostika bu nazorat emas, balki o‘rganish, baholash va tavsiyalar majmuini ishlab chiquvchi jarayondir. Ana shunday yondashuvlardan biri klaster tizimi hisoblanadi.

Klaster – ta’lim va tarbiyaga oid tashkiliy ishlarni, muammolarni va uni rivojlantirish yechimlarini bir necha mutaxassislarning hamkorligi asosida ishlab chiquvchi tizimdir. Klaster tizimi Chirchiq davlat pedagogika universiteti professor-o‘qituvchilarining tadqiqotlari natijasida muhim yondashuvga aylandi va bunga qadar metod sifatida qabul qilingan klaster o‘quv, ilmiy va amaliy tizim sifatida shakllandi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida klaster tizimi muhim o‘rin tutadi.

1. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida klaster tizimining hamkorlik usuli. Klaster tizimi bir necha usullarga asoslangan o‘ziga xos yondashuvlar majmuidir. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida klasterning hamkorlik usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda tajribali shaxslar va tashkilotlarning o‘zaro va birgalikda diagnostika jarayonini amalgalash muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan hamkorlik usulining quyidagi mexanizmlariga e’tibor bering:

- a) tajribali mutaxassislarning diagnostika jarayonida ishtirok etishi;
- b) ilmiy tashkilotlarning diagnostika jarayonida ishtirok etishi;
- v) mакtab jamoasining diagnostika jarayonida ishtirok etishi.

Mazkur klaster ishtirokchilari diagnostika jarayonida o‘zlarining vazifalariga ega bo‘ladi. Shu jihatdan tajribali mutaxassislar

boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining asoslarini, savolnomalarini va uni o’tkazish metodlarini ishlab chiqadi hamda diagnostika jarayonida ilmiy tahlil vazifasini bajaradi.

Ilmiy tashkilotlarning boshlang‘ich ta’lim diagnostikasidagi ishtiroki davlat ta’lim standartlari va talablarini, o‘quv rejalarini va dasturlarini tahlil qilish tarzida amalga oshiriladi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti (O‘zPFITI) mammalakatimizda ta’lim tizimini ilmiy asoslar bilan ta’minlovchi eng muhim ilmiy tashkilot hisoblanadi. Shu sababli mazkur institutning boshlang‘ich ta’lim diagnostikasidagi ishtiroki diagnostik jarayonning ilmiy asoslari va mexanizmlarini tanlashi shaklida amalga oshiriladi. Chunki institutda boshlang‘ich ta’lim muammolari bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan ilmiy mutaxassislar faoliyat yuritadi va ular boshlang‘ich ta’lim vazifalari bo‘yicha aniq yo‘nalishlarga ega hisoblanadi. Shu sababli diagnostika jarayonida bu mutaxassislarning ishtirok etishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining klaster tizimi hamkorlik usulida mакtab jamoasi tashkiliy, ta’minot va amaliy ishtirokchi vazifasini bajaradi. Bunda boshlang‘ich ta’lim jarayonini diagnostikaga tayyorlash, o‘quvchilarni yo‘naltirish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini diagnostik materiallar bilan ta’minalash mакtab jamoasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim jarayonini diagnostika qilish tartibli, maqsadli va samarali amalga oshiriladi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining hamkorlik usuli mazkur jarayonda jamoaviy faoliyatga asoslanadi. Shu jihatdan keyingi paytlarda mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim muassasalarida, jumladan, Chirchiq davlat pedagogika universitetida klaster tizimi asoslarini tadqiq etish va uning imkoniyatlardan oqilona foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki jamoaviy

faoliyat boshlang‘ich ta’lim jarayonini mavjud muammolarini tezkor ravishda aniqlash va hal etish imkoniyatlarini beradi.

2. *Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi klaster tizimining o‘zaro bog‘liqlik usuli.* Klaster tizimida o‘zaro bog‘liqlik usuli ta’limga oid me’yoriy hujjatlarni belgilangan vazifalarni birgalikda hal etish jarayoniga asoslanadi. O‘zaro bog‘liqlik usulida ta’limdan manfaatdor shaxslar ishtirok etadi. Shu jihatdan mazkur usulning quyidagi xususiyatlariga e’tibor bering:

- a) mактаб Pedagogik jamoasining boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida ishtirok etishi;
- b) ota-onalar jamoasining boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida ishtirok etishi;
- v) boshlang‘ich ta’limdan keyingi ta’lim bosqichi vakillarining diagnostika jarayonida ishtirok etishi.

Maktab Pedagogik jamoasi boshlang‘ich ta’limning samaradorligi bo‘yicha asosiy iste’molchi hisoblanadi va shu sababli bu jamoa boshlang‘ich ta’lim jarayonini muntazam kuzatib boradi. Mazkur jamoaning boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi jarayonidagi ishtiroki davlat ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlari talablariga rioya etilishini ta’minlash bilan amalga oshadi. Misol uchun, diagnostika jarayonida har bir o‘quv fani bo‘yicha belgilangan davlat ta’lim standartlariga rioya etilishi maktab pedagogik jamoasi tomonidan qat’iy nazorat qilinadi va bu jamoa diagnostikani amalga oshiruvchi ishtirokchilarga e’tiroz bildirish huquqiga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi jarayonida ota-onalar vakillari jamoatchilik fikrini ifodalovchi va kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Bunda o‘quvchilarning va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining manfaatlari ota-onalar vakillari tomonidan jamoatchilik nazorati shaklida himoya qilinadi. Misol uchun, biror o‘quv fani bo‘yicha o‘tkazilgan diagnostikanining natijalarini ushbu vakillar tahlil qilish huquqiga ega va bundan maqsad o‘quv fanlarining ahamiyatidan kelib chiqgan holda ularning o‘qitilishi jarayonini xolis baholashdan iborat.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, Prezident maktablari va maxsus ijodiy ta’lim muassasalariga tayyorlanmoqda. Shu sababli mazkur maxsus ta’lim muassasalarini o‘z vakillari vositasida boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi jarayonida ishtirok etish huquqiga ega. Chunki mazkur faoliyat bilan ushbu ta’lim muassasalari boshlang‘ich ta’lim imkoniyatlari, muhiti, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy malakasi va o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorgarlik ko‘lami bo‘yicha aniq ma’lumotlarga ega bo‘ladi. yondashuv mamlakatimiz ta’lim tizimi va diagnostika jarayoni uchun yangi tizim ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining klaster tizimi o‘zaro bog‘liqlik usulida ta’limdan manfaatdor ishtirokchilarning faolligiga tayaniladi. Chunki eng avvalo boshlang‘ich ta’lim samaralaridan jamiyat manfaatdor hisoblanadi, jamiyatning bu manfaatdorligi maktab Pedagogik jamoasi, ota-onalar va ta’limning maxsus muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida o‘zaro bog‘liqlik usuli klaster tizimining eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

3. *Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi klaster tizimida tajriba almashish usuli.* Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining klaster tizimida tajriba almashish usuli muhim ahamiyatga ega. Bu usulga ko‘ra, hududlar kesimida o‘tkazilgan boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi natijalari bo‘yicha tajriba almashiladi va buning samarasini o‘laroq hududlardagi boshlang‘ich ta’limning mazmuni hamda uni o‘qitish metodikasi kuchayadi. Shu jihatdan, mazkur usulning quyidagi xususiyatlariga e’tibor bering:

- a) boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi natijalari bo‘yicha maktablararo tajriba almashish;
- b) boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi natijalari bo‘yicha hududlararo tajriba almashish;

v) boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi natijalari bo‘yicha Respublika miqyosida tajriba almashish.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining klaster tizimida maktablararo tajriba almashish muhim mexanizmlardan biridir. Unga ko‘ra, muayyan mактабда o‘tkazilgan diagnostika natijalari o‘zga maktablar vakillari bilan birgalikda muhokama qilinadi va buning natijasida maktablarning diagnostika jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishi kuchayadi. Chunki har bir mактab bugungi kunda moddiy va texnologik jihatlardan teng ta’minlangan, ayni paytda, boshlang‘ich ta’limni amalga oshiruvchi o‘qituvchilarning tajribasi bo‘yicha farqliklar kuzatiladi. Shu sababli diagnostika jarayonining maktablararo tajriba almashinuvi har bir maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy malakalarining rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi klaster tizimining tajriba almashish usulida hududlar kesimi muhim o‘rin tutadi. Bunga ko‘ra, tuman, shahar va viloyatlar miqyosida amalga oshirilgan diagnostika natijalari bo‘yicha tajriba almashish o‘ziga xos mexanizmlardan hisoblanadi. Chunki tumanlar maktablarining tajribalari shahar maktablari uchun, shahar maktablarining tajribalari viloyat maktablari uchun o‘ziga xos yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, tumanlar va shaharlarda bugungi kunda tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyat yuritmoqda. Ayni paytda, tumanlar, shahar va viloyatlarning iqtisodiy rivojlanish jarayoni turli bosqichda bo‘lganligi uchun maktablarning tajriba almashish jarayoni sust kechayotganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Shu sababli mazkur bo‘shliqni boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining natijalari asosida to‘ldirish imkoniyatlari mavjudligini ta’kidlab maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi bo‘yicha klaster tizimining Respublika miqyosida tajriba almashish usuli muhim mexanizmlardan biridir. Unga ko‘ra, Respublika miqyosida amalga oshirilgan boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi natijalari asosida aniqlangan eng yaxshi maktablar tajribalari namuna sifatida taqdim etiladi. Kezi


kelganda ta'kidlash lozimki, har bir maktab o'zining tajribasini namuna sifatida ko'rsatilishini maqbul biladi. Shu sababli diagnostika jarayonida maktablar tajribasining eng yaxshi namunalarini aniqlanishi va baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida Respublika miqyosida maktablarning tajriba almashinuvi yo'lga qo'yilib, sog'lom raqobat muhiti asosida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunday omillarni aynan diagnostika natijalari berishini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasining klaster tizimi amaliyatga yo'naltirilganligi bilan muhim yondashuvlardan hisoblanadi. Shu sababli biz mazkur tizim imkoniyatlaridan foydalanish, uning mexanizmlarini ishlab chiqish va metodikasini shakllantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish kutilgan samarani beradi deb hisoblaymiz. Eslatib o'tish joizki, klaster tizimi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida o'quv jarayonida foydalanish yondashuvlari tarkib topdi. Ayni paytda klaster tizimi imkoniyatlaridan boshlang'ich ta'lim diagnostikasida foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagi metodikaga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- 1) boshlang'ich ta'lim diagnostikasining klaster tizimi asosida o'tkazish me'yoriy asoslarini ishlab chiqish;
- 2) mazkur klaster tizimi asosida o'tkaziladigan diagnostika jarayoni ishtirokchilarining vazifalarini aniq belgilab qo'yish;
- 3) bunday tizim asosida o'tkazilgan diagnostika natijalarini Respublika miqyosida ommalashtirish.

Bunday metodika boshlang'ich ta'lim diagnostikasini samaradorligiga xizmat qilishiga va uni ta'lim manfaatdorlarining faol ishtiroki asosida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim diagnostikasi klaster tizimida hamkorlik, o'zaro bog'liqlik va tajriba almashish usullari mazkur jarayon uchun amaliy mexanizmlarning eng muhimlarini o'zida mujassam etadi.



10-rasm. Boshlang'ich ta'lism diagnostikasida klaster tizimi asoslari

XI BOB.BOSHLANG‘ICH TA’LIM DIAGNOSTIKASIDA INDIVIDUAL YONDASHUV AMALIYOTI

O‘zbekistonda barcha sohalar qatorida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish jarayoni ham kechmoqda. Shu jihatdan Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 2023 yil 2 fevraldag‘i 01-20-son buyrug‘i bilan oliv pedagogik ta’lim jarayonida “individual yondashuv texnologiyasi universitet ta’lim jarayonining strategik yo‘nalishi” sifatida belgilangan. Chunki individual yondashuv texnologiyasi oliv pedagogik ta’lim jarayonida o‘qiyotgan har bir talaba bilan alohida shug‘ullanish imkoniyatini beruvchi vositalardan biridir. Shu ma’noda bu hol kelgusida boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri bo‘lishi kutilmoqda, negaki, individual yondashuv texnologiyasi bilan qurollangan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari har bir o‘quvchi bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu ma’noda bu o‘rinda boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti masalasi tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

1. Boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv asoslari diagnostikasi. Boshlang‘ich ta’limda individual yondashish va uning asoslari bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Individual yondashuvda har bir o‘quvchi bilan alohida shug‘ullanish taqozo etiladi va har bir sinfda o‘quvchilar miqdorining ko‘pligi mazkur masalaning murakkabligini namoyon qiladi. Ayni paytda, bu murakkablikni hal qilish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘quvchilarni biriktirib qo‘yish yo‘li bilan amaliy samaraga erishish mumkin. Misol uchun, Chirchiq davlat pedagogika universiteti professor-o‘qituvchilariga 5 nafardan talabalar biriktirilgan va bu tajriba talabalar bilan individual ishlash imkoniyatlarini bermoqda. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qiziqishlari, ehtiyojlarini va o‘qituvchilarga bo‘lgan munosabatlarini hisobga olgan holda ularni ustozlarga biriktirish boshlang‘ich ta’limda individual yondashuvning muhim asoslari hisoblanadi. Shuningdek, maktab to‘garaklari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan individual shug‘ullanish

imkoniyatlari ham mavjud. Bundan tashqari, o‘quvchilarning murojaatlariga boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar o‘zlariga biriktirilgan o‘quvchilardan tashqari murojaat etuvchilar bilan ham individual shug‘ullanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv asoslari diagnostika qilinganida o‘quvchilarning o‘qituvchilarga biriktirilganligi va uning samarasi, to‘garaklarning amaliy ta’siri va qiziqarliligi hamda murojaat etuvchi o‘quvchilar bilan ishslash darajasi o‘rganilib baholanadi. Buning natjasida boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv asoslarini tarkib toptirish, rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar diagnostikaning hosilasi sifatida ishlab chiqiladi. Negaki, bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari yuqori bo‘lib, bu omildan foydalangan holda ularning ta’lim olish huquqlarini kuchaytirishda aynan individual yondashuv o‘ziga xos imkoniyatlarni beradi. Bu jarayonni diagnostika qilish boshlang‘ich ta’limning individuallashib borishiga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tish joiz.

Individual yondashuv asoslari bo‘yicha yangi nazariy, metodik va amaliy tadqiqotlarni yaratishga ham ehtiyojlar mavjud. Bunday tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalarga binoan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini miqdorini maqbullashtirib borish yo‘nalishlariga ega bo‘linadi. Buning natjasida boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv asoslari yanada kuchayadi. Shu sababli mazkur masala diagnostik jarayonining asosiy obyektlaridan biri bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ham individual yondashuv asoslari bo‘yicha ishlanmalar yaratish, takliflar ishlab chiqish va haftalik pedagogik amaliyot davrida ularni tajriba-sinovdan o‘tkazish ishlariga jalb qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi metodikasi amaliyotga yo‘naltirilishi zaruriyat bo‘lib turibdi.

2. *Boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv samaradorligi diagnostikasi.* Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limi rivojida turli

yondashuvlarga asoslanish mazkur jarayonning demokratik qadriyat-larga amal qilishini namoyon qilmoqda. Shu jihatdan individual yondashuv tizimi ham demokratik yondashuvlarning tarkibiga kiradi va unda ta’lim oluvchilarining huquqlarini to‘liq ta’minlash imkoniyatlari mavjud. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv samaradorligini diagnostika qilib borish ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv samaradorligi o‘quvchilarining bilim darajasi, ularning faolligi, ta’lim-tarbiyaga nisbatan ijobiy munosabati va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zaro hamkorligida namoyon bo‘ladi. Diagnostika jarayonida ana shu masalalar o‘rganishi tavsiya etiladi. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zaro hamkorligi o‘quv fanlari kesimida, kasbiy tajribalarni ayriboshlashda va o‘z individual metodikalarini ommalashtirib borishda ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan diagnostika jarayonida mazkur masalalar alohida o‘rganilib tahlil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi va bu bilan boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv samaradorligi bo‘yicha aniq ma’lumotlarga ega bo‘linadi.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv samaradorligini o‘rganish va baholashda maktablararo, hududlararo va mamlakat miqyosi kesimida ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki har bir matabning individual yondashuv bo‘yicha o‘z samarasiga ega bo‘lishi tajribadan ma’lum. Hududlararo va mamlakat miqyosida individual yondashuv samaradorligi boshlang‘ich ta’lim sifatining ko‘rsatikchlarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur masalani diagnostika qilishning yangilangan va takomillashgan metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Umuman bizning yondashuvimizga ko‘ra, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib *boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi metodikasini* shakllantirish kutilgan samarani beradi. Chunki bugungi kunda boshlang‘ich ta’limning mutlaqo yangi vazifalari shakllanganligi ma’lum va jamiyatimizning yangicha rivojlanishi diagnostika jarayoniga ham bo‘lgan munosabatlarni takomillashtirishni taqozo

etmoqda. Shu ma'noda bu borada diagnostika mazmunida individual yondashuv tizimi ham aks etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.


3. *Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv tajribasi diagnostikasi*. Jamiyatimizning boshlang'ich ta'limga nisbatan munosabati va yondashuvlarida yangiliklar hamda yangi metodikalarning tarkib topib borishi jarayonga aylandi. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va boshlang'ich ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi ilmiy xodimlarning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limda individual yondashuv tajribalarini o'rganish va eng yaxshi tajribalarini ommalashtirishda diagnostik jarayon muhim o'rinni tutadi. Buning uchun individual yondashuvning o'qituvchilar tajribasi, maktablar tajribasi, hududlar tajribasi va mamlakat miqyosidagi tajribasi diagnostika qilinishi muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday yondashuv diagnostik faoliyatning ham samaradorligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv tajribasi darhol paydo bo'lmaydi, u yillar davomida shakllanib tajribadan o'tib boradi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limni amalga oshirish bo'yicha an'anaviy, maxsus va mustaqil ta'lim shakllaridagi individual yondashuv tajribalarini o'rganib baholash kutilgan samarani beradi. Negaki mazkur yondashuvlar keyingi paytlarda muhim nazariy va metodik ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki boshlang'ich ta'limda individual yondashuvning shakllangan va tarkib topgan tajribadlarini o'rganish va baholash bilan mazkur jarayonni yanada kuchaytirish bo'yicha tadbirldar ishlab chiqish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti mazkur ta'lim bosqichini rivojlantirish uchun eng muhim yo'nalishlarni beruvchi mexanizmlarni namoyon qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lim diagnostikasi va uning asoslaridan biri bo'lgan individual yondashuv amaliyoti oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti asoslarini individual yondashuv tayanchlari, uning samaradorligi va o‘ziga xos tajribasi tashkil qiladi. E’tibor bering:



11-rasm. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasida individual yondashuv amaliyoti omillari

XII BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM SAMARADORLIGI DIAGNOSTIKASI

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning faollahuv jarayoni kechmoqda. Chunki hozirgi zamон boshlang‘ich ta’limi тизимидағи көнгөлмөлік мазкур та’лимнан ажыратылған. Шу сабабы boshlang‘ich ta’lim samaradorligini мунтазам о‘рганиб бориш ва uni diagnostika qilish bugungi күндиңде ең мағыннейтілген мазкур та’лимнан ажыратылған. Samaradorlik deganda boshlang‘ich ta’lim oldiga qо‘йилған мазкур та’лимнан ажыратылған. Bu o‘rinda e’tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faollik darajasi diagnostikasi. Boshlang‘ich ta’limning асосиy samaradorligi o‘quvchilarning faollik darajasi bilan belgilanadi. Bu masalani diagnostika qilishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- 1) o‘quvchilarning bilim darajasi;
- 2) o‘quvchilarning sog‘lomlik darajasi;
- 3) o‘quvchilarning mustaqillik darajasi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim darajasi улардың мазкур та’лимнан ажыратылған. Bunda o‘quvchilarning o‘z fikrigа egaligi, fikrini ravon ifodalashi va yangi matnni tahlil qila olish ko‘nikmasi diagnostika qilinadi. Chunki o‘quvchilar mazkur та’lim bosqichida bilimning ең boshlang‘ich bosqichlarini egallaydi. Ko‘pchilik o‘quvchilarning ravon o‘qishiga асосиy e’tiborni qaratadi. Biroq diagnostika jarayonida o‘quvchilarning fikrlash darajasini o‘rganish мағыннейтілген. Aynan fikr jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimi o‘z ifodасини namoyon qiladi. Misol uchun, ба’зи o‘quvchilar tez o‘qyди yoki fikrini ifodalashda qiynaladi. Shu sababli keyingi paytlarda PISA kabi xalqaro та’lim dasturlari talabalariga асосан o‘quvchilarning fikrlash darajasini rivojalantirish bilan улардың мазкур та’лимнан ажыратылған. Bu jihat diagnostika jarayonida hisobga оlinishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sog‘lomlik darajasi ularning jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan to‘g‘ri rivojlanib borishi bilan baholanadi. Bu borada keyingi paytlarda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bepul ovqatlanirish va ularning to‘g‘ri ovqatlanishini nazorat qilish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu tadbir boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan talab darajasida rivojlanishg uchun asos bo‘ladi. Shu sababli o‘quvchilarning sog‘lomlik darajasini diagnostika qilishda ularning yosh va harakatlariga mos bo‘lgan jismoniy, aqliy hamda ruhiy rivojlanish darajasi baholanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompyuter kabi texnik vositalardan keng foydalanayotganligi ularning sog‘lomlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli keyingi paytlarda “Kompyuter savodxonligi” o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompyuterdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayon diagnostik faoliyatda hisobga olinishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqillik darajasi ularning murakkab sharoitlarda o‘zini tuta olishi, muammoni hal etishi va o‘zgalarga namuna bo‘lishi bilan belgilanadi. Shu sababli diagnostika jarayonida aynan mana shu masalalarga e’tibor qaratiladi. Keyingi paytlarda boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘nikmasini tarkib toptirishga alohida diqqat qilinmoqda. Bu bilan o‘quvchilar o‘zlarining imkoniyatlari doirasida mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini egallashi uchun ularga ko‘nikma beriladi. Diagnostika jarayonida o‘quvchilarning mustaqillik darajasini baholash natijasida bu faoliyatni rivojlantirishning yo‘nalishlari ishlab chiqiladi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida mazkur masalalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jamiyatimizning hozirgi innovatsion rivojlanish jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ham faollik ko‘nikmasiga ega bo‘lishini taqozo etmoqda. Chunki aynan faollik o‘quvchilar faoliyatining

asoslaridan birini tashkil etadi. Shu jihatdan diagnostika vositasida quyidagilar asosida o‘quvchilarning faollik darajasi o‘rganilib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasi shakllanganligi;
- o‘quvchilarda mustaqil faoliyat asoslarining shakllanganligi;
- o‘quvchilarning murakkab holatlardan mustaqil chiqib keta olish ko‘nikmasi shakllanganligi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmasini diagnostika qilish uchun ularning yozma va og‘zaki nutqidagi ravnlik, matnni tushunish va tahlil qila olish, o‘z fikrini ifodalay olish masalalariga e’tibor qaratadi. Aynan bu masalalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmasining shakllanganligini namoyon qiladi. Shu sababli yangi avlod darsliklarida bu masalalarga alohida e’tibor berilgan. Darsliklar va mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu hol diagnostika jarayonida hisobga olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quvchilarning mustaqil faoliyat asoslarini ularning bilim olishga intilishlari, qiziqishlari va o‘zgalarga munosabatlari tashkil etadi. Diagnostika jarayonida mana shu masalalar o‘rganilishi, ularning ko‘rsatkichlari belgilanishi va bu faoliyatni rivojalantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqilishi asosiy vazifalardan biridir. Keyingi paytlarda o‘quv fanlari tarkibining takomillashganligi va Bolalar ijodiyot markazlarida to‘garaklar vositasida o‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatini shakllantirish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli bunday imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘nikmasini shakllantirish va uning darajasini aniqlash jarayoni diagnostika qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasining hozirgi zamon holatida o‘quvchilarning murakkab holatlardan mustaqil chiqib keta olish ko‘nikmasini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bunday murakkab holatlar tarkibini tabiiy ofatlar davrida

to‘g‘ri xatti-harakat qila olishi, oila muammolaridan o‘quvchilarning o‘zini erkin tutishi, o‘zgalar bilan munosabatlarda ruhiy tushkunlikka tushmasligi, o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan turli holatlardan chiqib keta olishi kabilar tashkil etadi. O‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘nikmasi diagnostika qilinganida ana shu masalalarga e’tibor beriladi.

Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faollik darajasi diagnostikasi omillarini tashkil qiladi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligi diagnostikasi. Mazkur masala boshlang‘ich ta’lim samaradorligining negizlaridan birini tashkil etadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligi boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur masalani diagnostika qilishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- 1) o‘qituvchining ta’lim samaradorligi;
- 2) o‘qituvchining tarbiya samaradorligi;
- 3) o‘qituvchining faollik samaradorligi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning bilimdonlik darajasi bilan baholanadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nisbatan ko‘pchiligi bilimdon hisoblansa o‘qituvchining ta’lim samaradorligi ijobiy hisoblanadi. Bugungi kunda bu boradagi asosiy muammo boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ko‘pligidir. Shu sababli qabul qilish jarayonida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi “O‘qituvchi maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar miqdorini tartibga solish nazarda tutilgan. Buning natijasida o‘quvchilarning bilimdonlik darajasi oshadi va o‘qituvchilarning ta’lim samaradorligi kuchayadi. Diagnostika jarayonida aynan ana shunday murakaab holatlar hisobga olinib baholanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiya samaradorligi o‘quvchilarda axloqiy ong va axloqiy munosabatlarning talab darajasida tarkib topganligi bilan belgilanadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nisbatan ko‘pchiligidagi axloqiy ong va axloqiy

munosabatlarning talab darajasida shakllanganligiga e'tibor qaratiladi, uning natijasiga ko'ra diagnostik baho beriladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyat sharoitida shaxsning tarbiyalanganlik darjasini mezonlari o'zgaruvchan bo'ladi, shu jihatdan diagnostika jarayonida o'quvchilarning tarbiyalanganlik darjasini ayni holat bo'yicha baholanadi. Bunday tajriba xalqaro ta'lim dasturlarida keng qo'llaniladi. Unga ko'ra, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darjasini diagnostika qilingandan keyin muayyan muddat o'tib yana qayta diagnostika qilinadi. Natijada o'quvchilarning tarbiya samaradorligi aniq namoyon bo'ladi va bu hol o'qituvchilarning tarbiya samaradorligini baholashga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faollik darjasini ularning o'z kasbiy vazifalarini talab darajasida bajarishi bilan belgilanadi. Juda ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari faol ekanligi kuzatishlar jarayonida ma'lum bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faolligini diagnostika qilishda ularning faoliyatidagi yutuqlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faollik darjasini ta'lim berish, tarbiyani amalga oshirish va o'quvchilar bilan ishlashda namoyon bo'lishini eslatib o'tish joiz.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat samaradorligi masalasini diagnostika qilib borish ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday diagnostika jarayonida quyidagilarga e'tibor berish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi:

- o'qituvchi zimmasiga yuklangan vazifalar ko'lami;
- o'qituvchining vaqt omilidan foydalanish darjasini;
- o'qituvchining o'z faoliyatida rejaga amal qilish ko'lami.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchisiga juda ko'p vazifalar yuklanganligi ko'zga tashlanadi. Biroq bu vazifalardan asosiysini bilim va tarbiya berish tashkil qiladi. Ayni paytda, o'qituvchini jamoat ishlariga jalb etish qat'yan ta'qiqlangan. Biroq kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda o'qituvchilar turli tadbirlar bilan mashg'ul bo'lib qolayotganligi sir emas. Shu jihatdan o'qituvchining vazifasi

diagnostikasi qilinganida uning eng asosiy funksiyalariga e'tibor qaratiladi. Agar o'qituvchi o'z vazifasidan tashqari funksiyalar bilan ta'minlangan bo'lsa diagnostika natijasida uni bartaraf etish uchun tavsiya beriladi.

Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisining vaqt omildan oqilona foydalanishi taqozo etiladi. Shu jihatdan mazkur masala diagnostika qilinganida o'qituvchining dars uchun belgilangan vaqt dan qanday foydalanishi, maktab muhitida vaqt dan oqilona foydalanishi va umumiy faoliyat davrida vaqt dan foydalanishi masalalari o'r ganiladi. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'qituvchisining maktab faoliyatida vaqt dan foydalanish ko'nikmasiga qaratiladi. Agar o'qituvchi uchun vaqt taqchilligi sezilsa va u diagnostika jarayonida namoyon bo'lsa, bu muammoning hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyati davomida vaqt omildan foydalanish uchun rejaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi kunlik, haftalik va oylik vaqt rejasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli diagnostika jarayonida mana shu masalalar o'r ganiladi va asosiy e'tibor o'qituvchida vaqt dan rejali foydalanish bo'yicha malakani kuchaytirishga qaratiladi. Chunki o'qituvchi faqat mashg'ulot o'tuvchi shaxs emas, balki u o'zi ustida ishlashi, yangi ma'lumotlar bilan tanishishi va ijtimoiy faoliyat ko'rsatishi zaruriyat hisoblanadi. Diagnostika jarayonida ana shularga e'tibor berish kutilgan samarani beradi.

3. Boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishlari diagnostikasi.
Boshlang'ich ta'limning istiqbolli yo'nalishiga ega bo'lishi mazkur ta'lim bosqichining eng muhim vazifalaridan biridir. Aynan istiqbolli yo'nalishlar diagnostika qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan quyidagi masalalarga e'tibor berish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi:

- 1) boshlang'ich ta'limning uzoq muddatli dasturlargi egaligi;
- 2) boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan texnologiyalar darajasi;

3) boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha rejalarining asosligi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limning uzoq muddatli dasturlari ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” va Milliy o‘quv dasturi shular jumlasidandir. Misol uchun, Milliy o‘quv dasturida boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar fanlarga turkumlashtirib o‘qitish hamda xalqaro ta’lim dasturlaridan foydalanish belgilangan. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim mazmuni muntazam ravishda takomillashib boradi. Shu jihatdan diagnostika jarayonida ana shu masalalarga e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilayotgan texnologiyalar turlari ko‘p bo‘lib, ularning asosiyлари quyidagilardan iborat: axborot-kommunikatsion texnologiyalar, mustaqil ta’lim texnologiyasi, masofaviy ta’lim texnologiyasi. Axborot-kommunikatsion texnologiya o‘quv-chilarining bilim darajasini kuchaytirish va ularni yangi ma’lumotlar bilan ta’minalash, mustaqil ta’lim texnologiyasi esa o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga tayyorlash va masofaviy ta’lim texnologiyasi boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha tajribalarni ommalashtirib borish imkonini bermoqda. Shu sababli mazkur jarayonni diagnostika qilishda ana shu masalalarning samaradorligiga e’tibor berish tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha rejalarining mavjudligi asosiy masalalardan hisoblanadi. Bunda Milliy o‘quv dasturiga asosan fanlar kesimida muddatli rejalariga ega bo‘lish amaliy samara beradi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limning o‘quv fanlarini korreksiyalab borish ham amaliy rejalarini belgilab olishda qo‘l keladi. O‘quv fanlarini korreksiyalashda eng zaruriy ma’lumotlarni berish va eng muhim fanlarni o‘qitish tamoyiliga asoslaniladi. Ayni ana shu masalalar diagnostika qilinib baholanadi.

Boshlang‘ich ta’limning istiqbolli yo‘nalishlarini diagnostika qilishda bir necha muhim omillarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday omillarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining istiqbolli mo‘ljalga ega bo‘lishi;

- maktab jamoasining boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha rejaga ega bo‘lishi;

- boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha ilmiytadqiqotlarning yo‘nalishlari.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zining istiqbolli mo‘ljaliga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Bunda u choraklik va bir o‘quv yilda amalga oshiradigan shaxsiy tadbiridlari bo‘yicha o‘zining tasavvuriga ega bo‘lishi kerak. Diagnostika jarayonida suhbat yoki so‘rovnoma asosida ana shu masala o‘rganiladi hamda o‘qituvchining mo‘ljallari tahlil etiladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘ziga xos metodikaga ega o‘qituvchilar ko‘p hollarda yangi ma‘lumotlarni izlab topish ishini mo‘ljallahadi. Shuningdek, ular yangi avlod darsliklari ishlashni ham birinchi maqsad sifatida belgilashadi. Shu sababli diagnostika jarayonida mazkur masalalar o‘rganilib baholanadi.


Bugungi kunda har bir maktab jamoasining boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha rejaga ega bo‘lishi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ko‘p hollarda bunday reja maktab Pedagogik kengashi majlislarida boshlang‘ich ta’lim masalalarini ko‘rib chiqishda namoyon bo‘ladi. Shu sababli diagnostika jarayonida maktab jamoasining boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha rejaga ega bo‘lishi va maktab Pedagogik kengashida boshlang‘ich ta’lim masalalari bo‘yicha ko‘rib chiqilgan holatlар o‘rganiladi. Chunki aynan bu ikki hol maktabda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Hozirgi zamon oliy ta’lim muassasalarida va ilmiytadqiqot institutlarida boshlang‘ich ta’lim muammolari bo‘yicha istiqbolli tadqiqotlar yo‘nalishlarini belgilash an’anasi mavjud. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha eng muhim muammolar va ularni tadqiq etish asoslariga qaratiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim muammolari bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni diagnostika vositasi o‘rganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Bunda istiqbolli

yo‘nalishlarning to‘g‘ri belgilanganligi, dolzarbligi, jamiyat uchun ehtiyoja egaligi va mazkur ta’lim bosqichini rivojlantirishga xizmat qilishi masalalariga qaratiladi. Buning natijasida aniqlangan ma’lumotlar asosida diagnostika tavsiyalari ishlab chiqiladi.

Bularning barchasi boshlang‘ich ta’limning istiqbolli yo‘nalishlari diagnostikasida muhim o‘rin tutadi. Bu masalalar oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi kerak.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim samaradorligi diagnostikasi o‘ziga xos yondashuvlarni taqozo etadi. Buning uchun diagnostik jarayonni maxsus tuzilgan dasturga asosan amalga oshirish kutilgan samarani beradi. Mazkur masalalar bo‘yicha oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tibor bering:



12-rasm. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligi diagnostikasi negizlari

XULOSA

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” barcha sohalar qatorida boshlang‘ich ta’limni ham rivojlantirishdagi eng muhim omillarni bermoqda. Unda asosiy e’tibor boshlang‘ich ta’limda sifat darajasiga erishish, o‘quvchilarning faollik darajasini oshirish va o‘qituvchilarning kasbiy tajribasini rivojlantirib borish muhim o‘rin tutadi. Bularning barchasi boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini oqilona amalga oshirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Diagnostika – bu boshlang‘ich ta’lim jarayoni, tarbiya amaliyoti va amaliy malakalarni o‘rganib baholovchi muhim tizimdir. Keyingi yillarda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi nazariyasi, metodikasi va amaliyoti asoslarini yangilashga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Shu sababli mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, metodik ishlanmalar yaratish va texnologik tavsiyalarni ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi quyidagilarni qamrab olishini eslatib o‘tish joiz:

- boshlang‘ich ta’lim nazariyasi didaktikasi;
- boshlang‘ich ta’lim didaktikasi diagnostikasi;
- boshlang‘ich ta’lim metodikasi diagnostikasi;
- boshlang‘ich ta’lim boshqaruvi diagnostikasi;
- boshlang‘ich ta’lim samaradorligi diagnostikasi.

Mazkur masalalar ushbu tadqiqotda umumlashma tarzda tahlil etildi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ana shu yo‘nalishlar bo‘yicha diagnostika qilishning nazariy, metodik va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi bo‘yicha mamlakatimizda tadqiqotlar ko‘lami endi boshlandi. Shu sababli bu borada bir necha muammolarni hal etish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunday muammolarning asosiyalarini quyidagilar tashkil etadi:

boshlang‘ich ta’lim diagnostikasining mexanizmlarini ishlab chiqish;

boshlang‘ich ta’limni diagnostika qilish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rganish;

boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi muammolariga doir tadqiqotlar majmui yaratish.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini diagnostika asoslari bo‘yicha malakalarini tarkib toptirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda mutaxassislik o‘quv fanlarini diagnostika asoslari bo‘yicha mavzular bilan boyitish, amaliy mashg‘ulotlarda diagnostika metodikasi bo‘yicha treninglar o‘tkazish va haftalik pedagogik amaliyot davrida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi.

Xorijiy mamlakatlar boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakat bu jarayonni o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshiradi. Ayni paytda, xorijiy mamlakatlarning diagnostik jarayonni demokratik tamoyillar asosida o‘tkazish tajribalarini o‘rganish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mazkur jarayonga jalb etish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi bo‘yicha yangi avlod tadqiqotlarini yaratish zaruriyat bo‘lib turibdi. Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim diagnostikasini amalga oshirish bo‘yicha tajribalar tarkib topa boshlaganligi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tajribali o‘qituvchilarning individual metodlarini, hududlar kesimida maktablarning o‘ziga xos amaliy yondashuvlarini va mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan ilmiy faoliyatni uyg‘unlashtirilgan tarzda o‘zlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida mazkur masalalarga diqqat qilish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www. ziyonet.uz.
2. “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat Dasturi // www. ziyonet.uz.
3. Mirziyoyev Sh.M. Murojaatnoma (2023). // www. ziyonet.uz.
4. Abduqunddusov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilar tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: “Fan”, 2005, -157 b.
5. Avazboyev A.I. O‘quv predmetlarini mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashga takomillashtirish. Ped.fan.nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.:, 2001, -124 b.
6. Bezrukova V.S. Pedagogicheskaya integratsiya: sushnost, sostav, mexanizmi realizatsii / Integrasionniye prosessi v pedagogicheskoy teorii i praktike: Sb. Nauch.tr. Sverdlovsk, 1990. – S. 317
7. Belyayeva A.P. Integrativnaya teoriya i praktika mnogourovnevogo neprerivnogo professionalnogo obrazovaniya. – SPb: In-t proftyexobrazovaniya RAO, 2002. – S. 240
8. Borodovskaya N., Rean A. Pedagogika. – SPb.: “Peter”. 2001
9. Burxonov A. Psixologiya. – Toshkent, 2021. – S. 510
10. Buxareva L.N. Integratsiya uchebnix zanyatiy v nachalnoy shkole na krayevedcheskoy osnove. Nachalnaya shkola. 1991. №8. S. 48-51
11. Gessen A. Pedagogika: tyeoriya, praktika, podxodi. – M.: «Misl». 1997
12. Djurayev R. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – T.: “Fan”. 2008.
13. Jabborova O.M., Umarova Z.A., Boboxodjayeva L.G. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T., 2021.
14. Jabborova O.M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022

15. Ingenkamp K. Pedagogicheskaya diagnostika. Per. S nem. – M.: Pedagogika, 1991. – S 240
16. Mavlonova R. A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. - T.:–TDPU, 2005. 109 b.
17. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – T.: “Zebo print”/ 2021
18. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, 2009, 125-bet
19. Safarova R. va boshq. O‘quv materialini konsentrizm tamoyili asosida tanlashga oid didaktik yondashuvlar. – T.: “Fan va texnologiya”. 2012
20. Ximmataliyev D. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”. 2018. 117-bet.
21. O‘zbek pedagogik ensiklopediyasi. Mualliflar jamoasi. 2-TOM. – T., “Fan va texnologiya”. 2017

Onaxon Jabborova, Zuhra Umarova

BOSHLANG‘ICH TA’LIM DIAGNOSTIKASI

MONOGRAFIYA

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 25.03.2023.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozи. “Times New Roman”

garniturasи. Hisob-nashr tabog‘i. 7,0.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 20.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN